

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası

“DIFFERENTIAL PSIXOLOGIYA”

fanidan

MA'RUZALAR

MATNI

Namangan shahri

1-MAVZU: DIFFERENTIAL PSIXOLOGIYANING PREDMETI.

REJA:

1. Differentsial psixologiya haqida tushuncha.
2. Differentsial psixologiyaning nazariy asoslari.
3. Differentsial psixologiyaning amaliy jihatlari.
4. Differentsial psixologiyaning boshqa psixologiya sohalari bilan aloqasi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:

Differentsial psixologiya – individlar va guruhlar o'rtasidagi psixologik tafovutlarni o'rganuvchi psixologiya fanining tarmog'i.

Differentsial psixofiziologiya – insonlar o'rtasidagi individual psixofiziologik tafovutlarni o'rganuvchi psixologiyadagi yo'nalish.

Individ – alohida olingan odam, va ontogenetik taraqqiyot mahsuli.

Individuallik – individ psixikasi va shaxsining o'ziga xosligi.

Filogenez – turning rivojlanish jarayoni.

Ontogenez – individning rivojlanish jarayoni.

Individual psixologiya – A. Adler tomonidan ishlab chiqilgan psixoanaliz yo'nalishining bir tarmog'i.

Psixognostika – ruxiyatni o'rganish.

Psixotexnika – inson xulq-atvorini muayyan faoliyatda o'rganuvchi soha.

Insonlarni tashqi ko'rinishi jihatidan turli-tumanligi, bir-biridan farq qilishi qadimdan ma'lum haqiqatdir. Yuz o'nta qismdan tashkil topgan bo'lsa ham, ming-minglab odamlar orasida ikkita bir xil, bir-biridan ajratish qiyin bo'lgan qiyofadoshni topish nihoyatda mushkul. Insonlar nafaqat yuzi yoki tanasining tuzilishi bilan, balki xulq-atvori, hatti-harakatlari, xoxish-istaklari, qadriyatlari bilan ham farqlanadilar. Turli-tuman tarixiy, ijtimoiy va tabiiy sharoitlar inson shaxsiga, uning ruhiyatiga turlmcha ta'sir ko'rsatadi. Natijada insonlar o'rtasida turli tafovutlar vujudga keladi. Kishilar o'rtasidagi individual tafovutlar bilan bir qatorda o'xshashliklar ham mavjud. Har bir inson borliqni sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlari yordamida bilib oladi. Bilish jarayonlari hamma uchun xos bo'lsa ham, xulq-atvordagi namoyon bo'lishiga ko'ra har bir kishi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Shunday qilib, biz ba'zi xususiyatlarimiz bilan kimgadir o'xshaymiz, kimdandir farq qilamiz, lekin shunday sifatlar ham bo'ladiki, biz hech qachon boshqalarga o'xshashimiz mumkin emas.

Xulq-atvorda psixikaning namoyon bo'lishidagi individual farqlarning sifat tavsifi antik davr tadqiqotchilari tomonidan ham o'rganilgan. Bu xususiyatlarni miqdoriy darajada o'rganish esa V. Vundtning psixik jarayonlarni eksperimental yo'l bilan o'rganuvchi laboratoriyasida amalga oshirilgan.

Individual xususiyatlarni miqdoriy jihatdan o'rganishni differentsial

psixologiya vujudga kelishining dastlabki bosqichi deb baholash mumkin. Psixologiya tarixida differentsial psixologiyaning asoschisi sifatida ingliz olimi F. Galton e'tirof etiladi.

Frensis Galton (1822-1911) birinchi marta sensor (sezgirlik) sohaning individual xususiyatlarini o'rganuvchi qirolik laboratoriyasini tashkil etgan. Kishilar o'rtasidagi individual farqlarni o'rganish uchun matematik statistik va test metodlaridan foydalanish g'oyasini ilgari surgan.

Differentsial psixologiya umumiy psixologik bilimlar tarkibi sifatida eksperimental psixologiya negizida vujudga kelgan.

Differentsial psixologiya (lotincha "differentia" – tafovut) – individlar, guruhlar o'rtasidagi individual farqlar, ularning vujudga kelish sabablari va oqibatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining tarmog'idir.

Differentsial psixologiya tushunchasini fanga nemis olimi Vilyam SHtern (1871-1938) tomonidan "Individual tafovutlar psixologiyasi haqida" nomli asari orqali kiritilgan.

Differentsial psixologiya alohida bilimlar sohasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan bo'lib, sub'ektlarning psixik xususiyatlari, xulq-atvori, hatti-harakatlari, qobiliyat va intellekt darajasidagi tafovutlarni o'rganadi.

Dunyo psixologiyasida individual psixologik tafovutlarni o'rganish katta ahamiyatga ega. Hozirda Varshava universitetida professor YAn Strelyau rahbarligida individual tafovutlarni o'rganuvchi bo'lim, Rossiya Fanlar akademiyasining psixologiya institutida (Moskva) V. M. Rusalov rahbarligida differentsial psixofiziologiya laboratoriyasi, Londonda G. Ayzenk tomonidan tashkil etilgan "Shaxs va individual tafovutlar" nomli jurnal tahririyati psixiatriya institutida faoliyat ko'rsatmoqda.

Differentsial psixologiyaning predmeti individual psixologik xususiyatlar, ob'ekti esa turli ijtimoiy, sinfiy, etnik, yosh va jinsiy guruhga kiruvchi individ va shaxslardir.

Differentsial psixologiyaning vazifalari:

- 1) individual tafovutlarni aniqlash.
- 2) individual tafovutlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash.
- 3) individual tafovutlarni diagnostika qilish metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Ko'plab yillar davomida ilmiy psixologiya inson ruhiyatining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganib kelgan. Barcha kishilar ruhiyati shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi, qatlami, jinsi, psixologik-xususiyatlaridan qat'iy nazar bir xil qonuniyatlar asosida tushuntirilgan. Bu kamchilik hozirda bartaraf etilgan deb xisoblash mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan umumpsixologik faktlar va qonuniyatlar kabi psixikadagi differentsiatsiyalar (tafovutlar) ham o'rganish predmeti bo'lishi kerakligi alohida e'tirof etilgan.

Yangi yo'nalish qanday nomlanishi kerakligi haqidagi muammo ham uzoq tortishuvlarga sabab bo'lgan. Masalan, Bazen, Lyuka "Xarakterologiya", Mill – "Etologiya", Bin, Anri, Krepilinlar – "Individual psixologiya", Xeymons esa

“Maxsus psixologiya” degan tushunchalarni taklif qilishgan.

“Xarakterologiya” va “Etologiya” tushunchalari juda tor bo’lib, u individual tafovutlarning barcha jihatlarini qamrab ololmaydi. “Individual psixologiya” tushunchasi mos kelishi mumkin edi, lekin u “Ijtimoiy psixologiya”ga qarama-qarshi bo’lib qolishi mumkin. Yangi fan esa nafaqat individlar, balki xalqlar, jinslar, yoshlar, ijtimoiy guruhlar o’rtasidagi tafovutlarni ham o’rganadi.

Individuallik har doim yagonalikni bildiradi. Har bir individ aynan shunday shaklda hech qachon va hech qaerda uchramaydi. Albatta unga juda ko’p qonuniyatlar ta’sir etadi, uni boshqa individlar bilan bir qator xususiyatlari bo’yicha solishtirish mumkin. Lekin uni har doim ham umumiy qonuniyatlar bilan qorishtirib yuborish mumkin emas. Individ har doim umumiy qonuniyatlarga bo’ysinadigan tip sifatida o’ziga xos “plyus”larga ya’ni qo’shimchalarga ega bo’lib qolaveradi.

Differentsial psixologiya nazariy fan sifatida ana shu individuallikning vujudga kelishiga ta’sir etuvchi omillar rollarini uning turli variatsiyalari (o’zgarishlarini) o’rganadi.

Differentsial psixologiya nazariy fan sifatida ham muhim ahamiyatga egadir. Kishilar o’rtasidagi individual farqlar mavjudligi xalq xo’jaligining barcha sohalarida – ta’lim tizimida, sog’liqni saqlash, ichki ishlar va huquq-tartibot tizimida, kasbiy tayyorgarlik va boshqa barcha sohalarida e’tiborga olinishi nihoyatda muhim ahamiyatga egadir.

Buni quyidagi misollar yordamida tahlil qilish mumkin.

Maktab amaliyotida o’quvchilarni o’qitish, tarbiyalash jarayonida ularning bilish jarayonlaridagi, harakteri, temperamenti, qiziqishi qobiliyatlaridagi individual xususiyatlarini e’tiborga olishi shu kunning eng dolzarb masalasidir.

Agar sud amaliyotida jinoyatning ob’ektiv mohiyati baholash mezonlari sifatida qaralgan bo’lsa, hozirda jinoyatchining ruhiy holati ham inobatga olinmoqda. Shu maqsadda sudga oid psixologik ekspertiza tayinlanib mazkur hatti-harakat sodir etilgan vaqtda ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining ruhiy holati mutaxassis tomonidan psixologik tahlil qilinadi.

Erkaklar va ayollarning teng huquqliligi qonun yo’li bilan konstitutsiyalarda alohida ta’kidlab o’tilgan. Biroq psixologik xususiyatlari jihatidan ular aynan bir xil emaslar. Shunday kasblar mavjudki, u ayollar uchun mos bo’lmazligi mumkin.

Inson o’z taraqqiyotida turli yosh davrlarini boshdan kechiradi. Ana shu yosh davrlarida ham u o’ziga xos o’zgarishlarga ega bo’ladi. Demak turli yosh guruhiga mansub insonlar bilan muloqotda bu xususiyatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Differentsial psixologiya amaliy fan sifatida quyidagi (vazifalarni) maqsadni o’z oldiga qo’yadi:

1. Insonlarni o’rganish (psixognostika).
2. Insonlar bilan munosabatda bo’lish (psixotexnika).

Amaliyotda insonlar bilan o’zaro ta’sirga kirishish uchun ularni yaxshi bilish kerak bo’ladi. Masalan kasbiy tanlash uchun shu kishining ish qobiliyati, kasbiy

tayyorgarligini aniqlash zarur.

Insonlar haqida bilim olishning ikki xil usuli mavjud.

Birinchidan, ruhiyatning o'rganilayotgan sohasi haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lish asosida uni (alohida xususiyatini) tasniflay olish.

Ikkinchidan, mazkur xususiyatni u yoki bu guruhga kirishini rivojlanish darajasini aniqlash uchun tadqiqotning ishonchli vositalariga ega bo'lish.

Yuqoridagi fikrlar psixognostikani differentsial psixologiya sohasiga taalluqliligini isbotlaydi.

Psixotexnikaning predmeti odamning boshqa kishilarga amaliy ta'sir etishidir. O'zgalarga ta'sir etish uchun, eng avvalo, ana shu psixik xususiyatlar qanday sabablar ta'sirida vujudga kelganligi e'tiborga olinadi. Masalan, kriminalistik psixotexnikada – jinoyatchida tug'ma mayillik (dispozitsiya) bormi yoki atrofdagilar ta'siri kuchlimi degan savol tug'iladi. Iste'dodni tadqiq qilish uchun qaysi sohaga (musiqqa, matematika yoki rassomlikka) moyillik borligini aniqlansa o'qitish muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. "Ta'limni individuallashtirish" "differentsial yondashuv" degan tushunchalar juda ko'p ishlatiladi. Lekin hozirgacha ham unga to'la rioya qilinmaydi.

Differentsial psixologiya psixologik bilimlar tizimida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. U psixologiyaning ko'pgina sohalari bilan bog'liq holda rivojlangan va nazariy – amaliy muammolarni birgalikda hal etadi. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, eksperimental psixologiya, psixodiagnostika, ijtimoiy psixologiya, psixologik maslahat, psixoterapiya, oila psixologiyasi, sotsiologiya, pedagogika, falsafa, psixofiziologiya va boshqa fanlar bilan bog'liqligi uning mustaqil fan sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Differentsial psixologiyaning mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni nimada?
2. Differentsial psixologiyaning o'rganish predmeti nima?
3. Differentsial psixologiyaning rivojlanishiga kimlar hissa qo'shgan?
4. Differentsial psixologiyaning nazariy va amaliy vazifalari o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
5. Differentsial psixologiya va psixodiagnostika o'rtasidagi bog'liqlik nimada namoyon bo'ladi?

2-MAVZU: OLIY NERV FAOLIYATI INDIVIDUAL XUSUSIYATLAR SHAKLLANISHINING OMILI SIFATIDA

REJA:

1. Differentsial psixofiziologiya asab tizimi xususiyatlarini o'rganuvchi fan sifatida.
2. Asab tizimi xususiyatlarini o'rganish metodikalari.
3. Xulq-atvor mexanizmlarini tadqiq etish muammolari.
4. Asab tizimi xususiyatlarining tavsifi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:

Dinamiklik – qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarini asab tizimida muvaqqat bog'lanishlar hosil qilishi.

Labillik – bir qo'zg'alish tsiklining ikkinchisi bilan almashinish tezligi.

Asimmetriya – yarim sharlaridagi vazifalarning teng taqsimlanmaganligi.

Differentsial psixofiziologiyadagi qarashlarning asosiy tizimi asab tizimining xususiyatlari haqidagi nazariyalar hisoblanadi. Differentsial psixofiziologiya uchun asab tizimining alohida xususiyatlarini tadqiq etish, sindrom xosil qiluvchi bitta xususiyatda ko'plab ifodalanishlarni tan olish, sindromida ushbu xususiyatni aniqlashga mos keluvchi asosiy ko'rsatgichni ajratish xarakterlidir. Demak, differentsial psixofiziologiya individual – psixologik farqlarni o'rganuvchi bo'limdir. Asab tizimining xususiyatlariga asoslangan holda konkret – ilmiy rejada biologik va ijtimoiylik muammolari yaqqol aks etadi. Ko'pgina mualliflar: shu jumladan, V.S. Merlin, E.A. Klimov, M.R. Shukin, M.G. Suxanqulov va boshqalar turli kasbdagi odamlar mehnat faoliyatining individual xususiyatlarini o'rganib, ayrim xususiyatlar asab tizimining xususiyatlari birligi, ularning o'zaro ta'siriga bog'likligini ko'rsatishadi. Bu ta'sir, faoliyat mazmuni motivlar klassifikatsiyaga bog'liq degani emas, albatta. Bu erda fikr nisbatan oson ajralib turuvchi faoliyatni individual xususiyatlari haqida boradi: laboratoriya sharoitidagi o'rganishlarning ko'rsatishicha, asab tizimi xususiyatining individual birligini ma'lum ehtimollik darajasida oldindan bilish mumkin.

Neyrofiziologik funktsional tizimlarining tuzilishi, asab tizimi xususiyatining birliklari nisbati tufayli individuallashadi. Ayrim kasblarda esa asab tizimi xususiyatlari oxirgi natijada yoki faoliyat muvaffaqiyatida ko'rinadi. Asab tizimining xususiyatlari ishlab chiqarish vaziyatida, uzoq va qisqa muddatli va zo'riqishni talab qiluvchi faoliyatni bajarganda keskin va aniq kuzatiladi. (L. A. Kopitova, M. K. Akimova, O. A. Sirotin).

B.M. Teplov, V.D. Nebilitsin va ularning shogirdlari tomonidan turli insonlarda asab tizimining xususiyatlarini o'lchash imkoniyatini beruvchi metodikalar yaratilgan. Ularning yordamida mazkur xususiyatlarni psixologik ifodalanish ahamiyati ko'rsatilgan va psixologiya tarixida individual farqlarda birinchi bo'lib psixikaning biologik tarkibiy qismlari o'lchangan.

Differentsial psixologiyani qadimgi metodik quroli bo'lib, testlar hisoblangan: bunda intellekt, maxsus qobiliyat va hokazolarni o'rganuvchi testlar nazarda tutiladi. Test o'tkazilgandan keyin olingan natijalardan tabiiy yoki biologik tarkibiy qismlarni ajratish printsiplal egallab bo'lmaydigan vazifa, deb hisoblangan, haqiqatda ham shunday.

Hozirgi davrda (L. Kronbaxning 1972 yildan keyingi ishlarida) testlar insonning differentsial tabiati haqidagi ma'lumotlarni emas, balki sinaluvchining umumbashariy xususiyatlarini aniqlaydi, deb ta'kidlamogda. Shuningdek, ayrim asoslar ham borki, differentsial tabiiy ma'lumotlar, masalan, nerv jarayonlarining labilligi, dinamikligi "yashirin holda" test natijalarida yotadi deb hisoblash mumkin. Ammo sinaluvchining muvaffaqiyatlarida dominant, ustun rol sinaluvchining bilim va tajribasiga berilishi kerak. Bu fikrni jahondagi mashhur psixologlardan A. Anastazi va E. Torndayklar ham inkor qilmaydilar. SHunga qaramay, ayrim olimlar, xususan A. Yensen, G. Ayzenk testlar tabiiy qobiliyatlarni ochib berishi mumkin deb hisoblashadi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, sinaluvchining tajribasi ham dominant ahamiyatga ega bo'ladi. SHu bilan birga yuqori korrelyatsiyaga bevosita sabab bo'lgan rivojlanishning qulay sharoitlaridir. Shu nuqtai nazardan O. Klinberg qiziq material keltiradi. Amerikalik hindularning ota-onasi bilan rezervatsiyada (alohida) yashagan bolalarning test bo'yicha ko'rsatgichi 81 ga teng, shu etnik guruhning oq tanli fermerlar uyida tarbiyalangan vakillarining ko'rsatkichlari esa 102 ga teng bo'lgan. Testning 21 punkti bo'yicha farqlar jiddiy ahamiyatga ega. Yuqoridagilar test natijalari asosan bolaning rivojlanishi uchun qulay sharoitlarga bog'liqligini ko'rsatadi.

Asab tizimining xususiyatlarini o'rganuvchi metodikalarni bunday ulkan, lekin turg'un bo'lmagan aloqalar tizimida fodalanishda muayyan darajada talabchanlik va xususiyatlarni maksimal darajada aks ettirgan holda qo'llanilishiga e'tibor berish kerak. SHunga ko'ra, xususiyatlarni tadqiq qilish jarayonida sub'ektning o'zi haqidagi shaxsiy fikrlariga asoslanmaslik yoki hatti-harakat, xulq-atvorlarni sinaluvchi uchun oddiy bo'lgan vaziyatlarda to'g'ridan-to'g'ri kuzatmaslik lozim.

Bu holat shunday maxsus ilmiy muammoni vujudga keltiradi. Mazkur muammo asab tizimi xususiyatlarining psixik ko'rinishlari va bu xususiyatlarning xarakterli kombinatsiyalari (vaziyatlari) sifatidagi asab tizimining tiplarini o'rganishdan iborat. Har bir xususiyat o'z tabiatiga ko'ra bir emas, balki hayotda ifodalanishning bir qator "spektri"ga (jilosi ga) ega. Ijtimoiy turmush bu "jilo" ni chegaralaydi, ayrim hollarda bir yoki ikkita ifodalanishini saqlab, qolganlarini tormozlaydi. Asab tizimining xususiyatlari faqat shu bir yoki ikkita ifodalanishni qoldirib, boshqalarini tormozlaydi. Masalan, harakatchanlik xususiyati tezlik, g'ayratlilikda aniqlanadi. Bunda ma'lum hayot sharoitlarida qo'zg'atuvchilarda belgilarning o'zgarishi yuz beradi. Ijtimoiy muhitga bog'liq holda bizni qiziqtirayotgan rivojlangan shaxsning harakatchanligi muloqot ob'ektlarining o'zgarishida, bir turmush tarzidan ikkinchisiga o'tishning osonligida, fikrning rivojlanishida bir variantdan ikkinchisiga o'tishning osonligida yuzaga chiqadi. Inson shaxsini o'rganar ekanmiz, uning individual – tabiiy xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emas. Yana aynan shu xususiyatlar bilan

shaxs xarakterlanmasligini bilish zarurdir. Differentsial psixofiziologiyaning oldida – shaxsni shakllanishi uchun eng optimal sharoitlarni topish, tabiiy ma'lumotlardan kelib chiquvchi uning barcha imkoniyatlarini maksimal ifodalanish sharoitlarini topish maqsadi turadi.

Hozirgi davrga kelib, differentsial psixofiziologiyada individual xatti-harakat, xulq-atvor mexanizmlarini ochishga imkoniyat beruvchi 3 ta muammo mavjuddir: Bu muammolar:

1. Miya faoliyati parametrlarini – asab tizimi xususiyatlarining o'zini tasvirlash va identifikatsiyalashni, ularning fiziologik mazmuni va o'zaro ta'siri xarakterini aniqlash;

2. Asab tizimi xususiyatlarini territorial (hududiy) strukturaviy-tizimli tuzilishini o'rganish;

3. Uning faoliyatining turli darajalarida nerv tizimlari xususiyatlarining tuzilishi va nisbatiga bog'liqligini aniqlashdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan muammolarning ketma-ket ta'siri asab tizimi xususiyatlarining individual omillari sifatidagi muammoning qo'shqirrali va murakkab ekanligini aniq va to'liq ko'rsatadi. Bu tabiiy xususiyatlar atrof – muhitning ko'p qirrali ta'siri bilan o'zaro munosabatda ta'sirlanib, oxir- oqibatda bizni doimo qiziqtirib kelgan va hayron qoldirgan – inson individualligini yaratadi. Buni tan olish bizning oldimizga asab tizimi xususiyatlarini, uni tuzilishining barcha murakkabliklari, ularning mazmuni, vazifasi va ifodalanishining barcha qirralarini yanada chuqurroq o'rganish zaruratini vujulga keltiradi. Bu vazifani echish esa har qaysimiz bir-birimizdan nima uchun farq qilishimizning sabablarini tushunishga yordam beradi.

Insonni psixologik individualligining biologik mexanizmlariga ilmiy qiziqishning qadimiyligi tarixiy ilmiy yo'nalishlar davri bilan tengdir. Bundan 2,5 ming yil avval antik davr mediklari tomonidan temperamentning individual xususiyatlarini inson organizmidagi suyuqliklarning nisbati bilan bog'langanligi haqidagi gipoteza shakllangan edi.

Temperament (keyinroq bu mavzuga batafsilroq to'xtalamiz) inson organizmining individual xususiyatlaridan biri bo'lib, shaxs xulq-atvori xatti-harakatida ifodalanadi. U asab tizimining qo'zg'aluvchanlik darajasi bilan belgilanadi. Inson psixikasining dinamik xususiyatlari faoliyatini bajarishdagi tempi, tezligi, ritmi, intensivligi bilan farqlanadi. Temperamentning tashqi ifodalanishini analiz (tahlil) qilish orqali 3 ta asosiy tarkibiy qismi ko'rsatiladi, bu individning umumiy faolligi, motorikasi va emotsionalligidan iboratdir. Ularning turli nisbatlarda ifodalanishi har xil temperament tiplarini tashkil etadi.

O'sha davrdan boshlab to keyingi 100 yil davomida turli xil ilmiy yondashuvchi va bir-biridan tafovutlanuvchi kontseptsiyalar ilgari surildi. Ulardagi izlanishlar bir narsaga qaratilgan, u ham bo'lsa; atrof – muhit, bizni o'rab turgan borliq bilan murakkab o'zaro bir – biriga ta'sir etib, oxir- oqibatda inson individualligining takrorlanmas psixologik qiyofasi yaratilishiga olib keluvchi tabiiy, birlamchi sabablarni topishdir.

Barcha nazariyalardagi fikrlar bir narsa haqida; inson psixikasida foaliyat ko'rsatuvchi individual xususiyatlarni tushuntirish uchun o'zining birlashishida

qo'llash mumkin bo'lgan biologik tushunchalarni tizimlashdir. Sobiq sovet psixologlari bunday tushunchalar tizimi sifatida avval I.P. Pavlov maktabi, keyinchalik bu qarashlarni insonga qo'llash borasidagi B.M. Teplov, V.S. Merlin, B.N. Ananov va boshqalarning laboratoriyalarida ishlab chiqilgan asab tizimining asosiy xususiyatlari haqidagi nazariyalarda yoritishgan.

Bu nazariya asosida nerv jarayonlarining qo'zg'alishi va tormozlanishi yotadi. I.P. Pavlov ta'limoti psixologik ko'rinishlar uchun o'z kombinatsiyalarida neyrofiziologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirga kelib, taklif etilgan bu nazariya psixologik individuallik rivojlanishining biologik nazariyalari ichidagi eng samarali (mahsuldor) deb hisoblanadi. Bunga sabab qilib nazariya tayanadigan asos, ya'ni inson organizmining etakchi tizimlaridan markaziy asab tizimini olish, deb ko'rsatiladi. Boshqa nazariyalarda biologik tuzilishdagi boshqa belgilar olingan.

I.P. Pavlov hayotining oxirgi yillarida asab tizimining 3 ta asosiy xususiyati borligi haqidagi xulosaga kelgan; ya'ni asab jarayonlarining kuchi, muvozanati va harakatchanligidir. Bu nerv jarayonlarining 3 xususiyati shartli refleksga oid eksperimentlarda (itlarda) o'rganilgan.

Asab tizimining kuchi parametrining mazmuni nerv hujayralarining uzoq muddat davomida to'plangan qo'zg'alishga tormozlanish xolatiga o'tmaydigan chidash qobiliyatidan iborat. Muvozanat parametrining mazmuni MNSda qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining nisbatidan iborat bo'lib, I.P. Pavlov ta'limoti bo'yicha bu yoki jarayonlarning tengligi, yoki qo'zg'alish jarayonlarini ko'pligi bilan farqlanadi. Harakatchanligi esa qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining almashinish tezligi yoki aksincha sekinligida aks etadi.

Yuqoridagi parametrlar nazariy jihatdan asoslanib, amaliy oqlangan. Ammo keyinchalik miya funktsiyalarining individual variativligi va ular aniqlayotgan hatti-harakat, xulq-atvor xarakteristikalarini tasvirlash uchun bu 3 parametr etarli bo'lmay qoldi.

B.M. Teplov tomonidan asab tizimining boshqa xususiyatlarining borligi aniqlandi, bu xususiyatlar dinamiklik va labillikdir.

Dinamiklik – qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining asab tizimida engil generalizatsiyasiga xususan muvaqqat bog'lanishlarning shakllanishiga javob beradi.

Labillik – stimullar seriyali berilganda bir qo'zg'alish tsiklining ikkinchisi bilan almashinishining tezligi, qo'zg'alish impulsi ta'siridan so'ng, ta'sirni o'lchash tezligini bildiradi.

Demak, asab tizimi xususiyatlarining ko'p o'lchamli tuzilishi hali to'liq o'rganilmagan. Hozirgi davrga kelib, inson xatti-harakatlari, xulq-atvorining neyrofiziologik bazasini miyaning qaysi qismida ekanligini topish borasida tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan quyidagicha xulosalar chiqarishimiz mumkin:

1. Insonning individual-psixologik xususiyatlari haqidagi muammo qadimdan mavjud.

2. Bu borada bir qancha ilmiy va noilmiy yo'nalish hamda nazariyalar

mavjud.

3. Bu muammolarning hal qilinishi insonlar nima uchun farqlanishi mexanizmlarini va sabablarini bilib olishga imkon beradi.

4. Ta'lim-tarbiya bilan bog'liq muammolar yechilishiga keng imkoniyatlar ochadi.

5. Inson qanday qilib faoliyatning o'ziga xos usullarini egallaydi? Qanday qilib insoniyat tomonidan to'plangan avloddan – avlodga o'tuvchi bilimlar, madaniy ko'nikmalarning yig'indisi ro'y beradi? Irsiyat va muhit omillarining ta'sir kuchi qandayligi haqidagi savollarga javob olish imkoniyatini beradi.

6. Eng katta muammo insonning mohiyatini ochish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shaxslararo munosabatlardagi individual – psixologik xususiyatlarning rolini o'rganadi.

7. Talantli individlarni aniqlash va ularning xususiyatlarini oldindan belgilash, prognoz qilish imkonini beradi.

8. Ijtimoiylik bilan biologik asoslarining nisbati va rolini belgilash kabi masalalarni o'rganishga oid tadqiqotlar rolini kengaytiradi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Differentsial psixofiziologiya va differentsial psixologiyaning predmeti o'rtasida qanday farq mavjud?

2. Asab tizimi xususiyatlarini o'rganish qanday amaliy ahamiyatga ega?

3. Differentsial psixofiziologiyada asab tizimi qanday metodikalar yordamida o'rganiladi?

3-MAVZU: DIFFERENTSIAL PSIXOLOGIYADA TEMPERAMENTLAR MUAMMOSI.

REJA:

1. Temperamentlar tabiatini o'rganish tarixi

2. Temperamentni ifodalovchi belgilar.

3. Temperament tiplarining psixologik tavsifi.

4. Temperamentni diagnostika qilish.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:

Temperament – ruhiy jarayonlarning tezligi va dinamikasida namoyon bo'luvchi barqaror xususiyatlar yig'indisi.

Ekstraversiya – ruhiy jarayonlarning tashqi tomonga yo'nalishi.

Introversiya – ruhiy jarayonlarning ichki tomonga yo'nalishi.

Senzitivlik – tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, ta'sirlanuvchanlik.

Reaktivlik – individning reaksiyalari kuchi va tezligi.

I. P. Pavlov tomonidan o'rganilgan asab tizimining tiplari va temperament tushunchasi o'rtasidagi aloqani o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Asab tizimi tiplarining tushunchasi asosini emotsional holat tashkil etadi. Psixologlarning fikricha, temperament emotsiyalarda asosiy tushuncha bo'lib hisoblanadi. Shu tariqa shaxs psixologiyasining bir tarmog'i asab tizimining o'ziga xosligini o'rganish muayyan ma'no kasb etadi. Qobiliyatning fiziologik mexanizmlari ochilishi ko'pgina masalalarga aniqlik kiritadi.

Temperamentni o'rganish qiyin, chunki u qarama-qarshiliklardan iborat tarixga ega. G'arb psixologiyasida temperament deyarli alohida tushuncha sifatida qaralmaydi, balki amalda "shaxs" yoki "xarakter" tushunchalarining sinonimi sifatida baholanadi. Temperament – lotincha "temperamentum" so'zidan olingan bo'lib, grekcha "krizis" so'zining tarjimai hisoblanadi, uning ma'nosi "qismlarga tegishli o'zaro munosabatlar yoki o'zaro bog'lanishlarni anglatadi". Qadimgi Gretsiyada taxmin qilinishicha, organizmda ma'lum o'zaro bog'liq bo'lgan suyuqliklar mavjud, ular – qon, o't, qora o't va balg'amdir. Inson xulq-atvorining farqlanishiga bosh sabab mana shu moddalar deb tushuntirilgan. Hozirgi davrda bu qarash sof tarixiy qiziqishga ega, chunki inson organizmidagi garmonlar va mediatorlarning "ko'p shaklligini" hisobga olsak, suyuqliklar soni bir muncha ko'pdir. Hozir bizga shu narsa ma'lumki, suyuqliklar inson xulq-atvoriga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, balki asab tizimi xususiyatlari natijasidir. Nima uchun unda bundan 2000 yil oldin yuzaga kelgan "temperament" tushunchasi hali ham umumlashgan holda ongimizda barqaror turibdi? Buning asosiy sabablaridan biri, individual farqlanishning gumoral nazariyasi haqiqiy bilimlar elementini aks ettiradi va o'ziga xos ravishda zamonaviy modelda, o'ta rivojlangan ko'rinishda individuallik tabiatini dastlabki sharti sifatida yuzaga chiqqan. Qadimgi greklar inson tabiati xarakteristikasini, uning shaxsining tuzilishini, asab tizimi xususiyatlarini va boshqa shunga o'xshash "boyliklarni" bilishga intilganlar, lekin buni to'liq uddalay olmaganlar. Agarda organizmni bir butun yaxlit deb qarashdan kelib chiqadigan bo'lsak, ular organizm xususiyatlari bilan psixik xususiyatlar o'rtasida aloqa mafjudligini oldindan ko'ra olishgan. Keyinchalik insonni ilmiy jihatdan o'rganish doirasidagi turli fikrlar, nazariyalar, ko'rsatkichlarning barchasi "temperament" tushunchasida mujassamlashgan. Inson organizmining biologik xususiyatlari, imkoniyatlarining ustunligi bilan shartlangan holda individual – psixologik nuqtai nazardan tarixan temperament tushunchasini o'rganish muammosi vujudga keldi. Temperamentni atroflicha o'rganish asosan 2 ta savolga javob topishni taqozo etadi:

1. Temperament xususiyatlarining maxsus psixologik asoslari nimadan iborat?

2. Temperament asosida organizmning qanday xususiyatlari yotadi?

Deyarli XIX asrning oxirlarigacha temperamentni aniqlashda qonning xususiyatlari yoki qon aylanish tizimining o'ziga xos xususiyatlari maxsus ahamiyatga ega deb qaralgan. Faqatgina XX asr boshlaridagina temperamentning biologik asoslarini sharhlashda keskin o'zgarish yuz berdi. Bular biz yuqorida to'xtalgan. E.Krechmer, I.P.Pavlov, B.M.Teplov, V.D.Nebilitsin va boshqa olimlarning nazariyalari.

Hozirga kelib, insonning biologik tuzilmasi faqat o'z-o'zini tashkil qiluvchi ko'p rejali osttuzilma (bioximik, somatik, neyrofiziologik)lari bilan xarakterlanmaydi, balki organizmning funktsional tizimi umumiy ierarxiyasida bu tuzilma ostlari bir xil ma'no kasb etmaydi, tuzilishning murakkabligi bilan farq qiladi, aniqlovchi muxtoriy faollikning turli imkoniyatlari bilan o'zaro shartlanganlikning o'ziga xosligiga ko'ra farq qilishi bilan aniqlangan. Biologik xususiyatning ierarxik tuzilishidan kelib chiqqan holda, shuni taxmin qilish mumkinki, oliy darajadagi tuzilishi va funktsional xususiyatlarining ma'nosi (masalan, MNS xususiyati, faollashtiruvchi darajasi, yarim sharlararo munosabati, harakatchanligi, miyadagi nerv jarayonlarining va uning alohida bloklarining labilligi) rasman dinamik xususiyatlarining shakllanishida, shu jumladan, temperamentni organizmning boshqa tuzilma ostlariga taqqoslagan holda ahamiyatlidir, deb aytish mumkin. Psixikaning formal – dinamik xususiyatining rivojlanishi qanday kechishini tushuntirishda “tizimli umumlashtirish” printsipli kiritilgan. Bu printsip formal – dinamik komponentlari u yoki bu darajadagi tarkibini tashkil qiluvchilarni xarakterlaydigan psixika xususiyatlarining barchasini shakllantirishni kuzatib borish imkonini beradi.

Afsuski, turg'un psixologik sifat va belgilarining shakllanish ust - qurmasini bildiruvchi umumlashtirish tushunchasi psixologiya fani tomonidan bir necha marotaba taklif qilingan bo'lsa ham, lekin hozirgacha u psixikaning formal – dinamik jabhasini (aspektini) aniqlash uchun doimiy tahlil qilinmagan. J.Piaje umumlashtirish tushunchasini ko'nikma va intellektni shakllanishidagi muhim mexanizmlari sifatida keng ishlatgan.

J. Piaje umumlashtirish deganda, yangi ob'ektlarni “shaklan kengaytirish”, yangi elementlarni kiritish yo'li bilan o'z ildizlari bilan quyi tartibdagi sxemalarga borib taqaluvchi “soddalashtirish”, “ko'chirish”, “yangi struktura”ni tuzuvchi, “transpozitiv”, “assimilyatsiyani umumlashtiruvchi”, yuqori tartibda sxemani tuzishni tushungan. S.A.Rubinshteyn ham umumlashtirish tushunchasini ishlatgan. Xususan u inson xarakterini individda mustahkamlangan, generalizatsiya qilingan umumlashgan qo'zg'atuvchilar tizimi sifatida aniqlagan. Umumlashtirish faqat psixikaning mazmuni xarakteristikasiga nisbatan ishlatilmaydi. Dinamik belgilari ham umumlashadi, lekin dinamik va mazmunan umumlashishlar mantig'i va mexanizmlari xususiyati bizning taxminimizcha turlichadir. Agar formal – dinamik xarakteristikalar ko'proq “biologik” mantiqqa asoslanib umumlashsa, ya'ni, “tana” mantig'i bo'yicha (inson umumiy konstitutsiyasi ta'siri ostida), psixikaning mazmuniy xususiyatini umumlashish asosida ko'proq “sotsial” mantiq yoki inson faoliyatida ijtimoiy determinatsiya qilingan “predmet” mantig'i asosida bo'ladi. Uchinchi yo'nalishiga ko'ra, individual psixika u yoki bu psixologik tuzilmani aniqlab ajratish uchun asos bo'lib, umumlashtirish darajasi va o'ziga hosligi mavjud bo'lishi shart; kengroq inson biologik xususiyatlari strukturaviy, funktsional bo'lsa, bu temperamentdir; agar umumlashtirish asosida kognitiv bilish mexanizmlarning dinamik va mazmuniy xususiyatlari yotsa, bu intellektdir; agar qo'zg'alish motivining dinamik va mazmuniy xarakteristikasi umumlashsa, u holda bu psixologik tuzilma xususiyatidan iboratdir.

Shunday qilib, voqelikni yaqqol murakkab tuzilgan ob'ektiga nisbatan,

ya'ni, inson individualligiga, individuallikning maxsus nazariyasi chegarasida, ierarxiyaning tizimli printsipli quyi strukturaviy – funktsional darajasida formal – dinamik xususiyatini soddalashgan va uning elementlaridan (biologik xususiyatlar nazarda tutiladi va avvalo asab tizimining xususiyatlari) yuqori tuzilmalargacha taqsimlashadi. Bunday ketma – ket harakat natijasida insonning yangi integral tizim sifatлари hosil bo'ladi; temperament formal – dinamik xususiyatining eng birinchi psixologik darajasi sifatida, keyinchalik intellekt va xarakterning dinamik aspektlari yuzaga keladi. Agar taklif qilingan individual psixikaning formal – dinamik xususiyatlari shakllanishi mexanizmlari va tabiati haqidagi yo'nalishdan kelib chiqsak, shu narsa aniq bo'ldiki, faqatgina formal – dinamik (F.D) xarakteristikalar insonning biologik xususiyatlarini solishtirish predmeti bo'lishi mumkin.

Chet el psixologiyasida muammoning echimini topish uchun bir qancha harakatlar qilingan, shaxsning mazmuniy xarakteristikasi va biologik xususiyatlari o'rtasidagi korrelyatsiyani (qiyosiy bog'lanishni) topishni asossiz deb hisoblashgan. SHu narsani aytib o'tish kerakki, formal – dinamik xususiyatlar doimo qat'iy qayd qilingan tizim emas, balki inson rivojlanishiga ko'ra shakllanadi, qayta tuziladi, umumlashadi. Insonning formal – dinamik xususiyatlari ikkita asosda rivojlanishi mumkin.

1) biologik yosh davri rivojlanishi;

2) sotsial tashkil qilingan faoliyat turlarining (o'yin, o'qish, mehnat va boshqalar) bir-biri bilan o'zaro almashishi natijasida, ya'ni, FD ning mazmuniy xarakteristikasining rivojlanish asosi faoliyatning predmeti strukturasiadir, aniqrog'i ijtimoiy tashkil qilingan bir faoliyat shaklini boshqarish bilan almashishidir.

Inson psixikasida turg'un umumlashgan formal – dinamik xarakteristikaning borligi, masalan, biologik omil ta'siri ostida, faoliyat jarayoni shakllanuvchi – temperament, bizningcha, insonga o'zining energodinamik imkoniyatlarini optimal ishlatishga yordam beradi. Tabiiy tomonidan berilgan (ya'ni, genetik determinatsiya qilingan) energodinamik imkoniyatlarining individual darajasi (garmonal doirasidagi alohida almashish va faollik darajasi, nerv jarayonlarining xususiyati) motiv va maqsadlariga bog'liq bo'lmagan holda faoliyatda doim ishtirok etadi, individning barcha biologik xususiyatlarining integratsiyasida uyushganligi faoliyati bilan birlashgan optimal o'zaro bog'lanishga olib keladi. Yangi tizimli sifat ko'rinishida, biologik xususitlarining umumlashgan integratsiyasi (boshqacha aytganda, formal – dinamik tizim) sifatida o'z "Men"ining energodinamik imkoniyatlari faoliyat jarayonining yangi ko'rinishlarida sarflashning regulyatori (boshqaruvchisi) roliga yuzaga keladi.

Formal – dinamik xarakteristikalarni intellekt va xarakterning tarkibiga kiritish, oxirgisi ko'proq umumiy va psixikaning murakkabroq dinamik tuzilmasi degani emas, balki intellekt ham, xarakter ham umumlashgan dinamik xususiyatlar kabi umumlashgan alohida mazmuniy (predmetli – mazmuniy) xarakteristikaga ega. Intellekt yoki umumiy qobiliyatning shakllanishidagi farq qiluvchi belgilardan kognitiv tuzilishning mexanizmlarini birlashtirish hisobiga keng kognitiv tuzilmalar yaritilishidir. Differentsial psixofiziologiyada

intellektning bu tizim xususiyati uning formal – dinamik jabhasini aks ettiruvchi intellektual o'z-o'zini boshqarish tushunchasiga yaqin. Tadqiqotchilarning maxsus ishlarida yaqqol neyrofiziologik omillar aniqlangan, ular umumiy qobiliyatning tabiiy asoslari bo'lib ham hisoblanadi. Olingan ma'lumotlar differentsial psixofiziologik tadqiqotlar amaliyotida ishlatiladigan ko'rsatkichlariga yangicha qarash imkonini beradi.

Xarakterning shakllanishidagi farq qiluvchi belgi bo'lib, qo'zg'alishning turli xil shakllarining birlashishidir. S.L. Rubinshteyn ehtiyoj motivdan to qiziqish va ideallargacha xarakter deb tushungan. Tabiiyki xarakterda faqat motivatsion doirani mazmuniy, predmetli – mazmuniy tavsifini birlashtirmaydi, balki emotsionallikning formal – dinamik xarakteristikasi zarur tarkibiy qismlarga kiruvchisi sifatidagi dinamik alohida xususiyatlari hamdir. Umumiydashgan emotsional xarakteristikalar J.Piaje fikricha, "harakat zarur energiyani beradi" va xatti-harakat manbai bo'lib hisoblanadi.

Maxsus tadqiqotlarda shu narsa aniqlandiki, o'zaro faoliyatdagi prognozning samaradorligi ehtimoli sheriklarning formal – dinamik xususiyatlari bo'lsa ham yuqori emas. (ekstraversiya – intraversiya va emotsional stabillik xususiyatlari T.Yu. Ayzenk bo'yicha baholangan).

Oliy tartibdagi tizim xususiyatlari (masalan, asab tizimi xususiyati) temperament determinatsiyasiga biologik quyi tartibdagi ost tizimlarga qaraganda (masalan, tana yoki gumoral ost tizim xususiyati) katta hissa qo'shadi. Temperamentning shakllanishi faoliyatdan tashqari ham yoki faoliyatgacha ham bo'lmaydi, balki faoliyat jarayonida, uning eng sodda turlaridan tortib to murakkab ijtimoiy tuzilma shakllarigacha ta'sir etadi. SHu narsani aytib o'tish kerakki, agar temperamentning shakllanishida hal qiluvchi rolni umumiy konstitutsiya o'ynasa (ya'ni, biologik omillar bilan), individuallikning boshqa tuzilmalari shakllanishida esa (masalan, intellekt, xarakter) birinchi o'ringa shartsiz, ijtimoiy omillar chiqadi (predmetli faoliyat, sotsial munosabatlar) madaniy - tarixiy alohida xususiyatlar. SHu tarzda temperamentning shakllanishi 2 ta sabab orqali kechadi; umumiy konstitutsiyalar va insonga ilk bolalik davridayoq kiritilgan faoliyatning yaqqol turlari ostida. Temperamentning shakllanish jarayoni bizning tasavvurimizga ko'ra quyidagicha kechishi mumkin. Har bir alohida inson tabiatdan (o'zining umumiy konstitutsiyasi kuchiga ko'ra) qat'iy aniqlangan ma'lum bir xususiyatlar diapazolini oladi; "reaktsiya normalari", bioximik, biomexanik, somatik, neyrofiziologik va boshqalar. Biologik rivojlanish natijasida unda alohida almashish, muskul rivojlanishi, asab tizimining alohida xususiyatlari va boshqalarning individual darajalari shakllanadi. Bu individual – turg'un, biologik komponentlar ilk bolalik davridayoq faoliyatning turli ko'rinishlariga kiradi, ishtirok etadi – so'rish va ushlab olish refleksidan o'yingacha, o'qish va mehnatgacha ta'sir qiladi. Inson rivojlanishining birinchi bosqichlarida (bolalik) asosiy o'rinda faoliyatni bajarishning har xil tezliklari, turlicha reaksiyalar va boshqalar turadi. (Bu tasavvur maxsus tadqiqotlarda eksperimental jihatdan tekshirilishi zarur). Lekin, insonning etilishi va rivojlanishiga ko'ra biologik komponentlarining genetik turg'unligi hisobiga sekin – asta har bir individda qandaydir faqat unga xos birlashgan plastiklik, tezlik, birlashgan emotsionallik va

temperament xarakteristikasining boshqa birikmalari shakllanadi.

Shakllangan temperamentning umumlashgan xarakteristikalari faqat faoliyatda “bo’lmasdan”, unga “tus bermasdan”, balki chegaralar qo’yadi, organizmni juda katta favquloddagi yoki aksincha juda kam energiyani ishlatishdan, sarflashdan saqlaydi.

Organizmning yashashi birinchi galda juda ko’p zo’riqishlar sababli xavf ostida bo’lsa, ikkinchi holda predmetli dunyoni kuchsiz, passiv egallaganligi, o’zlashtirilganligi uchun xavf ostidadir. Xuddi shunda temperamentning moslashuvchi, adaptiv roli muhimdir.

Yuqorida aytilganlaridan kelib chiqqan holda temperament mohiyati va uning shakllanish mexanizmlarini tushunishda boshqa individual tuzilmalardan farq qiluvchi ettita belgisini ko’rsatish mumkin.

1) Temperament faoliyat va xatti-harakat mazmuniga bog’liq bo’lmaydi, ya’ni, faoliyatlarni (jabha) aks ettiradi (ma’no, motiv, maqsadga bog’liq bo’lmaydi).

2) Temperament individga xos bo’lgan dinamik (energetik) zo’riqish va dunyoga, odamlarga, o’ziga, faoliyatga nisbatan munosabatlarini, uning individual – xarakterli birligini xarakterlaydi.

3) Temperament universal bo’lib, faoliyat va hayot faoliyatining barcha doirasida paydo bo’ladi.

4) Temperament biologik davridayoq yuzaga chiqishi mumkin.

5) Temperament inson hayoti davomida ma’lum vaqt oralig’ida turg’un bo’ladi.

6) Temperament asab tizimi va boshqa biologik tizimlar osttuzilmalari (gumoral, tana va boshqa) xususiyatlarini yuqori darajala korrelyatsiya qiladi.

7) Temperament avloddan avlodga o’tadi.

Temperamentning birinchi 3 ta belgisi mazmunga bog’liq bo’lmasligi, zo’riqishning dinamik – energetik aspekti, universalligi – temperamentni shakllanish mexanizmlarini umumlashtirish orqali kelib chiqishi ko’rinadi.

4 ta oxirgi mezon – turg’unligi, ilk paydo bo’lishi, organizmning biologik xususiyatlarga bog’liqligi va avloddan – avlodga o’tishi – umumiy konstitutsiyada temperamentning biologik asosi sifatida paydo bo’lishi bilan bevosita aloqadorligini ko’rsatadi.

Polyak tadqiqotchisi YA.Strelyauning temperament borasida tadqiqotlarida ham emotsional xarakteristikalar yo’q. Uning yondashuvidagi temperamentning asosiy fundamental o’lchovi bo’lib reaktivlik va faollik hisoblanadi. Reaktivlik taassurotga inson organizmining javob reaksiyalarining hajmini aks ettiradi, aktivlik esa xatti-harakat aktlarida davomiyligi va intensivligining alohida xususiyatlarini ifodalaydi. Y. Strelyau taklif qilgan temperamentni o’lchash usuli “umumiy faollik”ning turli aspektlarini ko’rsatishdan iboratdir. Y. Strelyau reaksiyaning vaqt xarakteristikalarini temperamentning mustaqil parametrlari (tomonlari) sifatida ajratib ko’rsatishi, individuallikning maxsus nazariyasi kontekstida maqsadga muvofiq emas. Chunki tadqiqotlarning ko’rsatishicha, vaqt parametrlari (masalan, tezligi) umumiy faolliklik sindromiga kiradi.

Yuqorida ko’rsatilganidek, keng ma’noda temperament faoliyatgacha ham

yoki faoliyatdan tashqarida ham mavjud emas. U faoliyat jarayonning o'zida shakllanadi. Uning dinamik psixologik xarakteristikalarini umumlashtirish natijasida unga kirgan individual – turg'un neyrofiziologik (yoki kengroq biologik) tarkiblar hisobiga shakllanadi.

Shunday qilib, temperament xususiyatlari faqat faoliyat sharoitlari, faoliyat uslubi va dinamikasiga ta'sir ko'rsatuvchisigina bo'lib qolmasdan, balki uning yakuniy natijasi yoki samaradorligi bilan ham bog'langandir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Temperamentda insonning qanday xususiyatlari namoyon bo'ladi?
2. Temperamentning nerv-fiziologik asosini nima tashkil etadi?
3. Temperament irsiyat orqali o'tadimi?
4. Inson faoliyatiga temperamentning ta'siri qanday bo'ladi?

4-MAVZU: DIFFERENTIAL PSIXOLOGIYADA XARAKTER MUAMMOSI

REJA:

1. Xarakter –individual-psixologik xususiyat sifatida
2. Xarakter tiplarini yaratish muammosi.
3. Xarakter aktsentuatsiyasi va uning tiplari.
4. Xarakter tarkibi, sifatleri
5. Xarakterning shakllanishi haqidagi qarashlar.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:

Xarakter – shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi uning xulq-atvori va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan barqaror xususiyatlarning individual tarzdagi yig'indisi.

Xarakter aktsentuatsiyasi – biror xususiyatning boshqa belgilar fonida ajralib turishi va alohida rivojlanishga ega bo'lishi.

Psixopatiya – aqliy qobiliyat saqlanib qolgani tarzda boshqa kishilar bilan bog'liq xarakterga oid hastalik, ba'zan atrofdagilar uchun ijtimoiy xavfli bo'lishi ham mumkin.

Har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual - psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu erda gap xarakter haqida boradi. "Xarakter" so'zi aynan tarjima qilinganda grekchadan "tamg'a" degan ma'noni anglatadi. Lekin har qanday individual xususiyatlar ham xarakter bo'la olmaydi. Masalan, ko'rish va eshitishning o'tkirligi, tez esda olib qolish bu xarakter emas.

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida

namoyon bo'ladigan, tipik sharoitlarda ko'rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual - psixologik xususiyatlar yig'indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi - har bir tipik vaziyat hissiy kechinmalarining individual o'ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq. Ikkinchi tomondan, har bir tipik vaziyatdagi harakat sifatlari va individual o'ziga xos usullari shaxs munosabatlariga bog'liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga) o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz.

Xarakterning juda ko'p xislatlari odamning ish - harakatlarini belgilovchi chuqur va faol mayllar hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha ob'ektiv sharoitga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. Ayrim odamlar bilib turib qiyin vazifani tanlaydilar, ayrimlar aksincha. Xarakter xislatlari ma'lum tarzda harakat qilishga ba'zan esa sharoitga qarama - qarshi harakat qilishga undar ekanlar, ular hayotiy qiyin daqiqalarda yaxshiroq namoyon bo'ladilar. Xarakter qarshilik ko'rsatuvchi sharoitlar bilan kurashda sinaladi. Xarakterni tarbiyalash barkamol avlodni tarbiyalashning markaziy va muhim vazifalaridan biridir. +at'iyatlilik tanqidiy qarash, fahm-farosat, kuzatuvchanlik, xushyorlik singari xislatlari - intellektual (aqliy), quvnoqlik, mehribonlik - hissiy - irodaviy xususiyatlarga kiradi.

Xarakterning psixologik va fiziologik sabablari haqida faqat taxminiy fikrlar, xulosalar mavjud. Kishi temperamenti uning xakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xarakterning fiziologik asosi asab tizimining tipidan iborat.

Xarakter xislatlari shaxsning qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganlari tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgargan xususiyatlaridan iborat. Hayvon asab faoliyatining tug'ma konstitutsion turi genotip. Lekin hayvon tug'ilganidan keyin tashqi sharoitlarning g'oyat xilma - xil taassurotlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyat orqali u muqarrar javob berishi lozim bo'ladiki, ko'pincha bu faoliyatlar mustahkamlanib, butun hayoti bo'yicha saqlanib qoladi. SHu sababli hayvonning batamom tarkib topgan asab faoliyati tipga oid belgilardan tashqari muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasi - fenotip xarakterdir. Dinamik stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarining, jumladan, xarakter xislatlarining ham nerv - fiziologik asosidir.

Xarakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun I. P. Pavlovning ikkinchi signal tizimi haqidagi ta'limoti katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal tizimi nutq va tafakkurning fiziologik asosi bo'lish bilan birga, kishi xulqini ham idora qiladi. Xarakterning fiziologik asosi xarakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlari, chunonchi, ijtimoiy maslak, mardlik, o'z burchiga sadoqatli bo'lishlarini o'z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta xarakter psixologiyasining mazmuni o'zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy hodisadir: psixologiya xarakterning mazmunini tashqil qilgan tomonlarini yoritishligi tufayli,

u ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko'rilgan. Nemis psixologi va psixiatri E.Krechmer tomonidan XX asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari U.S.Heldon, E.Fromm, K. Leongard va A.E.Lichkolar tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etildi. Inson xarakterining barcha tipologiyalari quyidagi asosiy g'oyalarga muvofiq tarzda tashqil etilgan:

1. Inson xakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida juda erta namoyon bo'la boshlaydi va butun hayoti davomida barqaror bo'lib boradi.

2. Xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushma emas. Ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat.

3. Mazkur tipologiyaga ko'ra, ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlarga birlashtirish mumkin.

E. Krechmer odam tanasining tuzilishi va konstitutsiyasiga ko'ra, eng ko'p uchraydigan uchta tipni ajratib ko'rsatgan (astenik, atletik, piknik).Ularning har birini shaxsning ma'lum xarakter tiplari bilan bog'langan bo'lsa ham aslida hech qanday ilmiy asoslar bo'lmagan.

1. Astenik tip - Krechmer fikricha, uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi urtacha yoki undan balandroq bo'yli, oriq kishilardir. Asteniklarning tana va yuz terisi noziq, elkasi tor, yassi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan.

2. Atletik tip - skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o'rtachadan yuqori, baland bo'yli, keng elkali, kuchli ko'krak qafasli, boshini tik tutib yuradigan kishilardir.

3. Piknik tip - bosh, ko'krak qafasi va qorin bo'shligi yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch - harakat a'zolari yaxshi rivojlanmagan kishilardir.

E. Krechmer mazkur tiplar bilan ayrim ruxiy kasalliklar o'rtasida muvofiqlik bor, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, atletik va astenik tiplar shizofreniyaga moyilroq deb hisoblaydi.

E. Krechmer tipologiyasi hayotiy kuzatishlar asosida xulosalar chiqarish orqali tuzilgan bo'lsa ham kamchiliklarga ega. Ba'zi ilmiy tadqiqotlar ma'lum tana tuzilishiga ega kishilar ruxiy kasalliklarga moyil ekanligini aniqladi va xarakter aktsentuatsiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surish imkonini berdi.

Nemis psixiatri K. Leongard fikricha, 20 - 50 % kishilarda ba'zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba'zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.

Xarakter aktsentuatsiyasi - biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarining yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aktsentuatsiyasi turli darajada engil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin. O'smirlar orasida xarakter aktsentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi. Uni turli psixodiagnostik testlar, masalan, SHmishek testi orqali aniqlash mumkin.

K. Leongard tomonidan xarakter aktsentuatsiyasi quyidagicha tasniflanadi:

1. Gipertim tip. Haddan tashqari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo -

ishora, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi.

2. Distim tip. Kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.

3. Tsikloid tip. Kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda - gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi.

4. Qo'zg'aluvchan tip. Muloqotda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qaysar, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojarolarning tashabbuskori.

5. Kuchaytiruvchi tip. Kamgap, aql o'rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni xohlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'rttirishga moyil.

6. Pedant tip. Ziddiyatlarga kam qo'shiladi, ko'pincha passiv holatda bo'ladi, atrofdagilarga ko'plab rasmiy talablar qo'yadi, tartibli, jiddiy, ishonchli xodim.

7. Xavotirli tip. Kamgap, odamovi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z-o'zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

8. Emotiv tip. Tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradi, xafa bo'lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, g'amxo'r, mas'uliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi.

9. Namoyishkorona (demonstrativ) tip. Muloqotga tez kirishadi, etakchilikka intiladi, hoqimiyat va maqto'vni yoqtiradi, boshqalarni o'ziga jalb qila oladi, noyob tafakkurga, xulq - atvorga ega.

10. Ekzaltirovanlashgan tip. O'ta muloqotga kirishuvchan, ko'p gapiradi, qiziquvchan, do'stlari va yaqinlariga e'tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy.

11. Ekstrovertirovanlashgan tip. Muloqotga kirishuvchan, do'stlari ko'p, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitishi mumkin. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

12. Introvertirovanlashgan tip. Muloqotga kirishishga qiynaladi, "ichimdagini top", falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat'iyatli, e'tiqodi mustahkam, qaysar, tafakkuri qotib qolgan.

To'g'ri tashqil etilgan ta'lim - tarbiya jarayonida xarakter aktsentuatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin.

Odam xarakterining tarkibi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas. Xarakterning ayrim xususiyatlari bir-biriga bog'liq, biri - biriga tobe yaxlit organizmni hosil qiladi. Mana shunday yaxlit organizm xarakter tarkibi deb ataladi. Masalan, odamning takabbur va shuhratparastligini bilsak, uning ichi qora, qorako'ngilli deb, kamtarligini bilsak, ko'ngilchan deb aytamiz.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to'rtta tizimi farqlanadi.

1. Jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va shu kabilar).

2. Mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik,

yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish kabilar).

3. Narsalarga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo'lish kabilar).

4. Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat - nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, kamtarlik kabilar). Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan boshqa juda ko'p xususiyatlar ham mavjud: o'ziga ishonish, o'zbilarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maktanchoqlik kabilar. Xarakterning hamma xususiyatlari bir-biri bilan bog'liq, kishining xarakteri nisbatan bir butundir.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xakterni birmuncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi. Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga undash kuchi bilan tashqi sharoitlarga qarshilik ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi.

Uchinchidan, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga - uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter barqarorligi va o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridandir. Agar tashqi sharoitning o'zgarishi bilan har gal xarakter boshqacha bo'lib, o'zgarib qoladigan bo'lsa, unday paytda odamning xatti -harakatlari tashqi sharoit ta'siriga nisbatan passiv javob reaksiyasiga aylanib qolgan xatti -harakat batamom passiv moslashishga aylangan bo'lar edi. Odamning xarakter xususiyatlari juda xilma - xil hayot sharoitlarida ham qarshilik qiluvchi sharoit bo'lishiga qaramay uning xatti -harakatlarini boshqaradi.

Xarakter ma'lum darajada plastikdir (egiluvchandir). Xarakterning plastikligi ikki xil ma'noga ega, birinchidan, xarakterning plastikligi (egiluvchanligi) xarakterning barqarorligi singari muhim faol ta'sir qilishidir. Ikkinchidan, xarakter ma'lum darajada plastik bo'lganligi uchungina istalgan odamning xarakterini tarbiyalay va qayta tarbiyalay olamiz.

Kishiga mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatleri xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridir, bu sifatlar alohida ko'rinib emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, qat'iyat, sabr – toqat, chidamlilik, dadillik, o'zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, mas'uliyatni his qilish, o'z-o'zini tanqid axloqiy xislatlardir.

Organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar bilan belgilanadi. (egizaklar). Egizaklar temperament xususiyatlari jihatidan o'xshasalar ham xarakter xislatlari bir-biridan farq qiladi. Xarakterning xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog'liqdir. Lekin shaxs munosabatlari o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan

belgilanadi. Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki yolg'onchi, qo'rqqoq yoki jasur bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o'z-o'zini tarbiyalashi bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Xarakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql - idroki va hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakterining tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar Ota-onasiga, yaqin kishilarga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish - turishlari, dasturxon atrofida o'zini to'tishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklarga va jonivorlarga munosabatlarini kuzatadilar. Ota-onalar va o'qituvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o'zlariga ham e'tibor bilan qarashlari, o'zlarida ijobiy xarakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va axloqiy sifatlarini tarbiyalab etkazmoq uchun Ota-onalar va tarbiyachilarning o'zlari bunday sifatlariga ega bo'lishlari lozim.

Xarakterning o'sishida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning roli katta. O'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta mas'uliyatli vazifa Ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar bog'chasi tarbiyachilari zimmasiga to'shadi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog bolaning temperamentni ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi bilishi lozim. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini yo'qotishdan va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan almashtirishdan iborat. Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotmoq, ijobiy tomonlarini tarbiyalab etkazmoq uchun tarbiyalanuvchining o'z temperamentini o'zi idora qilishiga o'rgatmoq lozim. O'z temperamentini idora qila bilish xarakterning ijobiy xislatidir.

Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyalovchi roli nihoyatda katta. Inson yakka bir-biridan ajralgan tarika hayot kechirmaydi, muayyan jamoada, ya'ni muayyan oilada, maktabda, tseksda va hokazolarda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta'sir qilib, ijobiy natijalarga erishmoqi mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy xislatlari bolalar bog'chasida o'yin faoliyatida tarkib topa boshlaydi. To'g'ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o'quvchilarda uyushqoqlik, intizom, saranjom - sarishtalik, o'z-o'zini tuta bilish, o'zini idora qilish, o'ziga nisbatan talabchan bo'lish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib etishadi. Kishi jamoada bir-biri bilan aloqa qilish jarayonida boshqalarning va o'zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xarakterini bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy ekanligini ajratib oladi. Bunday sharoit kishini o'z xarakterini o'zi tarbiyalash, jumladan, o'z xarakterini qaytadan tarbiyalashni yo'lga soladi.

Har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xarakteri va uning sifatleri uchun

o'zi javobgardir. O'z xarakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini ko'zda tutmog'i lozim. O'z kamchiliklariga iqrar bo'lish kamchiliklarini yo'qotishga boshlaydi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Temperament va xarakter o'rtasida qanday farq bor?
2. Har qanday psixologik xususiyatni xarakter deyish mumkinmi?
3. Xarakterning fiziologik asosini nima tashqil qiladi?
4. Xarakter qanday sifatlar yig'indisidan iborat?
5. Xarakterning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni sanang.

5-MAVZU. XARAKTER VA TEMPERAMENTNI O'RGANISH METODLARI

REJA:

1. Differentsial psixologiyada kuzatish va tajriba metodlaridan foydalanish.
2. Suhbat, so'rovnoma, biografiya, metodlarining individual xususiyatni o'rganishdagi ahamiyati.
3. Egizaklar metodi va uning turlari.
4. Intellektual testlar va unga quyiladigan talablar.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:

Metod – predmetni o'rganish usuli.

Biografiya – tarjimai hol, kundaliklar, xatlar asosida individuallikni o'rganish usuli.

Monozigot - bir tuxumdan rivojlangan egizaklar.

Dizigot – ikki tuxumdan rivojlangan egizaklar.

Intellektual test – aqliy qobiliyatlarni o'rganish testi.

Validlik – metodikaning o'rganish predmetiga mosligi.

Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning ma'lum darajada mumkin qadar ob'ektiv, aniq, ishonchli uslublar (metod) ga ega ekanligidir. Metod – uslubning ma'nosi biror narsaga borish yo'li demakdir. Psixologiyada qo'llaniladigan metodlarga kuzatish va eksperiment (tajriba) uslublari kiradi.

KUZATISH metodi – ikki xil bo'lib, ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (ichki) kuzatish turlari bor. Inson ruxiyotidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Kuzatishning maqsad, vazifasi belgilanadi.
2. Kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi.
3. Tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi.

4. Kuzatish qancha davom etishi qat'iy lashtiriladi.
5. Kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'qish, o'yin, mehnat, sport) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi.
6. Kuzatishning shakli (yakka guruh, jamoa tayinlanadi).
7. Kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik-suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon) tayyorlab qo'yiladi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq - atvori, nutq faoliyati kabilar o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni etmaydi.

O'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, g'alabaga intilish, o'zini harakatini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig'ish mumkin. Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatni, chehradagi tashvish va iztirobni, sinchkovlik, termulish kabi ruxiy holatlarni kuzatib tafakkurdagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bundan tashqari qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi ham insonning ruxiyatidagi o'zgarishlari bo'yicha ma'lumot beradi. Psixologiyada o'z -o'zini kuzatish metodidan ham foydalaniladi. Ko'pincha moxir o'qituvchi o'zini - o'zi kuzatish orqali ilmiy xulosa chiqara oladi.

Bu usul yordamida sun'iy tushunchalarni shakllanishi, nutqning o'sishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va psixologik xususiyatlari aniqlanadi.

Tajriba usuli tabiiy va laboratoriya usullariga bo'linadi. Tabiiy usul psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Bu uslubning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy ta'riflagan. Bu usuldan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, o'qituvchilar, keksalarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari va muammolarini aniqlashda foydalaniladi. Asosiy usullardan tashqari yordamchi usullar ham bor. Jumladan, test, suhbat, so'rovnoma, biografiya, sotsiometriya va metodlardan ham individual psixologik tafovutlarni o'rganish maqsadida foydalanish mumkin.

Egizaklar metodi differentsial psixologiyaning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod ilk bor F. Galtonning 1876 yilda nashr qilingan "Egizaklar tarixi tabiat va tarbiya kuchining nisbiyligi mezoni" nomli asarida ta'riflangan. Biroq bu metoddan XX – asrning 20 – yillarida keng foydalanila boshlangan. Egizaklar metodi yordamida inson individualligining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, xususan irsiyat va muhitning roli o'rganiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha egizaklar ikki turli bo'ladi.

Monozigot egizaklar – urug'langan tuxum hujayradan bo'linishning dastlabki bosqichida bitta emas, balki ikkita genetik jihatdan o'xshash organizm rivojlana boshlaydi. Dizigot egizaklar – ikkita tuxum hujayradan rivojlangan, taxminan teng yarim genetik xususiyatlarga ega bo'lgan oddiy sibsalar (inglizchada – aka-singil, bir ota-onaning bolalari) dir.

MZ (monozigot) va DZ (dizigot) egizaklar o'rtasidagi juftlikaro

o'xshashlikni o'rganish orqali individuallikning shakllanishiga irsiyat va muhitning ta'sirini aniqlash mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'xshash genotipik belgilar DZ egizaklarga nisbatan MZ egizaklarda sezilarli darajada yuqoridir.

Frantsuz psixologi R. Zazzo tomonidan egizaklar metodining quyidagi turlari yoki variantlari mavjudligi ko'rsatib o'tilgan:

1. Ajratilgan monozigot egizaklar
2. Egizak juftliklar metodi.
3. Nazoratdagi egizaklar metodi.

Ularning mohiyati bilan tanishib chiqish mumkin.

Ajratilgan monozigot egizaklar metodining maqsadi "genotip – muhit" muammosini tajriba orqali tadqiq etishdir. Bu metodning mohiyatiga ko'ra u yoki bu sababga ko'ra ilk bolalik davrida bir – biridan ajratilib alohida sharoitlarda tarbiyalangan va voyaga etgan MZ egizaklar o'rganiladi. Genotipik jixatdan o'xshash belgilarga ega ikki kishi bir – biridan farq qiluvchi muhit ta'sirida ulg'ayadi va uning individualligida qanday tafovutlar mavjudligi tadqiqotda aniqlanadi. Albatta bunday egizaklarni topish nihiyatda qiyin. Adabiyotlarda bunday egizaklarning 130 jufti tavsiflangan. Bunday egizaklar X. Nyumen, F.Frimen, K. Xolzinger, D. Shilde, N. Juel– Nilsonlar tomonidan eng ko'p topilgan va o'rganilgan. Bu olimlar tomonidan aniqlanishicha, ajratilgan juft MZ egizaklar ayrim belgilari bo'yicha birga o'sgan DZ egizaklarga nisbatan ko'proq o'xshashlikka ega bo'lsalar ham, birga o'sgan MZ egizaklarga nisbatan bu o'xshashlik kam kuzatilar ekan.

N. Juel–Nilson tomonidan 12 juft monozigot ajratilgan egizaklar o'rganilgan. Uning fikricha, juftlikaro o'xshashlikni - yuz ifodasi (mimika), ovoz, yurishdan tortib shaxslararo munosabatlardagi uslub va qiziqishlarda ham ko'rish mumkin. Bu genotipning ta'sirini ko'rsatadi.

Juft egizaklar metodi frantsuz olimi R. Zazzo tomonidan (1960) yil taklif qilingan. Bu metod yordamida juftlik ichidagi o'zaro munosabatlarning psixologik o'ziga xosligini aniqlash mumkin.

R. Zazzoning fikricha, o'z "mikro muhiti" (mikro - past) mavjud. Ular nafaqat o'zaro bir – birlari bilan munosabatlarda, balki atrofdagilar bilan munosabatlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. MZ egizaklardagi juftlararo munosabat DZ egizaklarnikiga nisbatan ancha barqaror va ko'p bo'ladi.

Nazoratdagi egizak metodi yana "egizak - guvoh" "egizaklarning o'zaro nazorati", "sherigini nazorat qilish" metodi deb ham yuritiladi va u A. Gezell tomonidan taklif etilgan. Bunday tipdagi "vazifada" tajribada maxsus o'xshash MZ juftliklar tanlab olinadi. SHeriklardan biriga u yoki bu tashqi ta'sir beriladi, ikkinchisiga esa yo'q. SHeriklarni turli xil usullar yordamida u yoki bu faoliyatga o'rgatish orqali ta'lim samaradorligini oshirish muammosini hal qilish mumkin.

Zamonaviy psixotexnikada egizaklar metodining barcha ko'rinishlaridan keng foydalaniladi.

Intellektual testlarning ilk ko'rinishi Bine, Simonlarning (1905, 1908, 1911) dastlabki shkalalaridan boshlanadi. Bu shkala frantsuz olimlari Bine, Simonlar tomonidan aqli zaif bolalarni tanlash maqsadida tuzilgan. **Birinchi**

shkala (1905) 30 ta testdan iborat bo'lib tushunish, mulohaza qilish, fikrlash intellektning asosiy ko'rsatkichi sifatida qabul qilingan. **Ikkinchi shkala**(1908) da topshiriqlar soni ko'paytirilgan bo'lib, uning yordamida 300 dan ortiq 3 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rganilgan.

Bine – Simon shkalalari orasida eng uzoq muddat foydalanilgani Stenford tahlilidagi variantidir. Bu variant 1916 – yili Stenford universitetida Termen rahbarligida ishlab chiqilgan bo'lib, dastlabki variantining to'ldirilgan va o'zgartirilgan shaklidir. Mana shu variantda birinchi marta 1Q – intellekt ko'effitsienti qo'llanilgan. Uchinchi varianti 1960 yilda ishlab chiqilgan. Unda 2 yoshdan 5 yoshgacha mo'ljallangan testlar yarim yosh o'rtasidagi oraliqqa mo'ljallab tuzilgan. 5 – 14 yosh uchun esa bu oraliq 1 yoshni tashkil etadi. Har bir tekshiriluvchiga uning yoshiga mos bo'lgan topshiriqlar to'plami beriladi. Tekshiriluvchi qaysi tipdagi topshiriqlarni bajara olsa, bu daraja uning aql yoshi hisoblanadi.

Diagnostika maqsadida qo'llaniladigan testlar muayyan talablarga javob bersagina samarali natijalar berishi mumkin. Ana shunday talablardan biri standartlikdir. Standartlik – testni o'tkazish va natijalarini izohlashdagi bir xil mezonlarning mavjudligidir. Standartlik aniq yo'riqnoma ishlab chiqishni, vaqtning cheklanganligini taqazo etadi.

Standartlikning navbatdagi bosqichi me'yor – norma belgilashdir. Me'yor – topshiriqni normada yoki o'rtacha bajarishdir. Testni juda katta tanlanma – tekshiriluvchilar sonida o'tkaziladi va ularni o'rtacha natijasi – me'yor bo'lib xizmat qiladi.

Intellektual testlarga qo'yiladigan navbatdagi talab ishonchlilikdir. Ishonchlik bir test yoki uning ekvivalenti (o'rnini bosuvchi) yordamida doimo bir xil natijalar olinishidir.

Validlik testlarga qo'yiladigan eng muhim talablardan hisoblanadi. Validlik haqiqatdan ham shu test yordamida o'rganilayotgan xususiyatni o'lchash mumkinmi degan savolga javob bo'ladi. Validlikka testning shu xususiyatni o'rganishga loyiqligidir.

1955 yilda ishlab chiqilgan Veksler shkalasi intellektual testlardan biridir. U 11 ta subtestdan iborat bo'lib, shundan 6 tasi verbal, 5 tasi noverbal (bajarish uchun) testlardan tashkil topgan. Bu metodika 1700 kishida o'tkazilgan bo'lib, ularning yoshi 16 – 64 gacha tashkil etadi. Uning ishonchliligi 0.97 ni tashkil etadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Individual xususiyatlarni o'rganishda ko'proq qaysi metoddan foydalaniladi?
2. Differentsial psixologiyada tajribani qanday tashkil etish mumkin?
3. Siz egizaklarni kuzatish orqali qanday o'xshashlik va farqni aniqlashingiz mumkin?
4. Aqliy testlar ob'ektiv o'lchov vositasi bo'lishi mumkinmi?

6-MAVZU: QOBILIYAT SHAXSNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

REJA:

1. Qobiliyatlarning tabiati.
2. Qobiliyat tarkibidagi etakchi va yordamchi xususiyatlar.
3. Qobiliyatlar haqidagi nazariyalar.
4. Umumiy va maxsus qobiliyatlar.
5. Aqliy rivojlanishning ilk kurtaklari.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar.

Qobiliyat – faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi xususiyatlar yig'indisi.

Layoqat – qobiliyatning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan morfologik funksional va psixologik xususiyatlar.

Daholik – shaxs ijodiy faoliyatining eng yuqori darajasi.

Tayanch yoki etakchi xususiyat – faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim xususiyat.

Umumiy qobiliyat – bir necha faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi xususiyatlar yig'indisi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu mutolaa natijasidir, qobiliyat esa kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart – sharoit bo'lib, shuning bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar, hamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilar, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Qobiliyatli ammo noshud inson ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikmada ro'yobga chiqadi. Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik deb aytadilar. Mohirlik – bu endi qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi.

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizim shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatini muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatligini ko'rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb baholanadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi bor. Qobiliyat tarkibida tayanch va etakchi xususiyatlarni va nihoyat, muayyan fanni yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim.

Hamma qobiliyatlar uchun asosiy, tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu – individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning etakchi

xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik.

Quyidagilarni yordamchi xususiyatlar deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi), ematsionallik, ya'ni, his-tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faolligini oshiradi) va shunga o'xshashlar. Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. Qobiliyat strukturasiidagi turli xususiyatlarning tartibi faoliyatning turli davrlarda yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, struktura ham barqaror, ham o'zgaruvchidir.

Psixologiyada qobiliyatning uchta nazariyasi vujudga kelgan. Ulardan biri qobiliyat shaxsning biologik jihatdan determinlashgan, ya'ni, biologik jihatdan shartlangan xususiyatlaridandir, qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi tomomila irsiy fondga bog'liq, deb tushuntiradi.

Faqat g'arbdagi ba'zi professional psixologlar emas, balki turli fan va san'at sohalarininng vakillari ham (matematiklar, yozuvchilar, rassomlar) ana shu qarashni yoqlaydilar. Masalan, XX asrda F.Galton, Kotslar talant irsiydir, faqat imtiyozli tabaqalarning vakillarigina boy irsiy merosga ega bo'ladilar, degan xulosaga keldilar. Dastavval shuni aytish kerakki, ular qo'llagan tekshirish metodikasi ilmiy tanqidga arzimaydi, mazkur mualliflarning xulosalari bir yoqlama xususiyatga egadir.

Ingliz bioximigi S. Rouz, kishi qobiliyatining rivojlanishi uchun to'siqlar biologiyaga qaraganda, ijtimoiy sharoitda ko'proqdir, deb uqtiradi.

Ingliz psixologi D. Kidjin ham aynan shunday xulosaga kelib, tarbiyaning kishi intellektual rivojlanishiga hal qiluvchi ta'siri haqida so'z yuritadi.

Ikkinchi nazariyaning vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi, deb uqtiradilar. Masalan, Gelvetsiy o'z vaqtida, tarbiya yordamida geniy yaratsa bo'ladi, degan edi. Hozirgi zamon olimlaridan amerikalik U. Eshbi kishining qobiliyati yashab turgan vaqtida stixiyali ravishda o'z –o'zidan va ongli ravishda ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, shularning natijasi o'laroq masalalarni echish uchun tegishli dastlabki rejalar va dasturlar vujudga keladi, deb ta'kidlaydi. Rus olimi A.N. Leont'ev ham o'zining funktsional organlar nazariyasi bilan (bu nazariyaga A.Uxtomskiy asos solgan edi) shunga o'xshash nazariyani yoqlaydi. Masalan, Firmen, qobiliyat muhitga bog'liq, deb hisoblaydi. Modomiki, ishchilarning bolalari o'sadigan og'ir sotsial muhitdagi kishilarning madaniy va intellektual rivojlanish darajasi past ekan mutlaqo tabiiyki, bu bolalar ham o'z otalarining rivojlanishi darajasidan o'tib keta olmaydilar, deydi u.

Ko'zga ko'ringan sobiq sovet psixologi S.A.Rubinshteyn, A.N.Leont'evning nazariyasiga norozilik bildirdi. Uning fikricha, tug'ma iste'dod nishonalari – bu reallikdir, uni rivojlantirish lozim.

Hayotiy kuzatishlar va maxsus tekshirishlar qobiliyatning tabiiy zaminini inkor qilib bo'lmasligini ko'rsatdi. Bir qator maxsus faoliyatlar borki, ular uchun tabiiy zamin xususan muhim ahamiyatga ega.

Qobiliyatning uchinchi nazariyasining tarafdorlari ancha to'g'ri pozitsiyada turadilar, ya'ni, qobiliyat qulay sotsial hayotiy sharoit mavjud bo'lganda, faoliyat jarayonida shakllanadi. Bu oxirgi nazariya hayotni o'zining butun xilma – xilligi bilan aks ettiradi va maxsus tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi.

Shubhasiz, qobiliyat miya tuzilishining qandaydir tug'ma anatomik xususiyatlari bilan birinchi navbatda miya mikrostrukturasi xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bu xususiyatlar in'ikos jarayonining xususiyatiga va shaxsning xatti-harakatiga ta'sir qiladi.

Bolada juda erta seziladigan tipologik xususiyatlar – zehn yoki dastlabki tabiiy xususiyatlardir. SHuni ham aytib o'tish lozimki, B.M.Teplov haqli ravishda aytganidek, tipologik xususiyatlar har taraflama ahamiyatga ega bo'lib, ular xarakterning ham, qobiliyatning ham tabiiy asosini tashkil qiladi.

I.P.Pavlov, voqelikni obrazlar orqali aks ettiruvchi birinchi signal tizim kuchli bo'lgan kishilar badiiy tipga mansubdirlar (muzikant, rassom, yozuvchi) deb hisoblangan edi. Ikkinchi signal tizimining roli ustunroq bo'lganda mutafakkir tip dunyoga keladi. Abstrakt fikrlashning o'tkirligi bu tipning xarakterli belgisidir. Va nihoyat, ikkala tizim yaxshi nisbatda muvozanatlashganida esa o'rtacha tip kelib chiqadi. O'rtacha tip vakillari badiiy va mutafakkir tiplarning hamma xislatlarini o'zida birlashtiradi. Ko'pchilik, jumladan Gete, Lomonosov kabi nihoyatda talantli genial odamlar ana shu tipga mansubdirlar.

Psixologiyada qobiliyatlar odatda umumiy va maxsus qobiliyatlarga bo'linadi.

Umumiy qobiliyat deganda, muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak intellektual taraqqiyoti tushuniladi. Biroq bunday tushuncha tor va noto'g'ridir, chunki intellektual taraqqiyot faqat ixtiyoriy faoliyat uchun umuman talab qilinadi, xolos. Umumiy qobiliyat faoliyatning hamma turlariga ta'sir qiladi, jumladan, u amaliy faoliyatga ham deb hisoblovchi psixologlar topiladi. Ammo bu fikrda qarama-qarshilik bor, agar umuman qobiliyat universal ahamiyatga ega bo'lar ekan, unda qandaydir maxsus qobiliyatlar haqida gapirib o'tishning hojati yo'q.

Nihoyat shunday psixologlar ham borki, ular faqat maxsus qobiliyatlar yig'indisi ta'sirini ko'zda tutadilar. Kishining turli-tuman faoliyatlari orasida bittasi asosiy yoki etakchi faoliyat sifatida, shaxsning maxsus taraqqiyotini belgilovchi faoliyat bo'lib ajralib turadi. Bu faoliyat tug'ma spetsifik zehn nishonlariga mos tushishi mumkin.

Qobiliyat muqarrar va o'zgarmas bir narsa emas. U faoliyat jarayonida ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadi. Faoliyatda kishi shaxsning tabiiy kuchi chiniqadi va rivojlanadi, potentsial imkoniyatlari real qobiliyatga, o'qish va ijodiy ishlash qobiliyatiga aylanadi.

Qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi. Birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalaring sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo'li bilan. Ikkinchidan, mutaxassis (muzikant, artist, rassom va hokazo) rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan. Uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni engil va samarali o'zlashtirishni, tanlangan faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlansin. To'rtinchidan, o'quvchini maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo'li bilan.

Beshinchidan, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan borish kerakki, bu alomatlar dastavval mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik, qatt'iylik, sinchkovlik va tanqidiylikdan iborat, bularsiz individning potentsial imkoniyatlari va qobiliyati faoliyatda maksimal ravishda rivojlana olmaydi. Oltinchidan, maktab o'quvchilariga nisbatan individual munosabatda bo'lishni umumiy talablar bilan to'g'ri qo'shib olib borishdir. Qobiliyatning muayyan izchillikda namoyon bo'lishi va rivojlanishini hayot tajribasi ko'rsatib turibdi.

Ko'pchilik mashhur kishilarning xususiyatlari bolalik chog'laridayoq ko'zga ko'ringani aniqlangan. Masalan, "Kibernetika" ning asoschisi N.Viner o'zining avtobiografik kitobini "tez o'suvchi vunderkind" deb nomlagani bejiz emas. U 12 yoshida universitetga kirgan, 14 yoshida birinchi o'quv darajali bo'lgan. Hammaga ma'lum bo'lgan mashhur Viktor Gyugo ham vunderkinddir. U 15 yoshida Frantsuz Akademiyasining a'zosi bo'lgan. A.S. Griboedov esa 11 yoshida Moskva universitetiga kirgan, 15 yoshida esa falsafa fakultetining ikkita bo'limini yakunlagan.

Erta uyg'ongan aqliy xususiyatlarga ota-onalar, pedagoglar, jamiyat befarq bo'lmasligi lozim. Axir bunday qobiliyatga ega bolalar kelajakda talant egalari bo'lib etishib chiqishi mumkin. Hozirda bunday bolalar gazeta – jurnallarda ko'p bosilmoqda. Ayniqsa, 1 yilning o'zida 2 – 3 ta sinfni tugatayotgan qobiliyat egalari ko'payib qoldi. Ularga bizni befarq bo'lishimiz juda xatodir.

Ko'pchilik bolalarning boshqalarga nisbalan "boshqacharoq" ligi 2-3 yoshida ko'rinadi. Ularda aqliy bilimlarga bo'lgan intilish kuchli bo'ladi. 3-4 yoshida o'qishni sanashni o'rganib oladilar. Keyinchalik yangidan – yangi bilimlarni o'rganishga intiladilar. Bunday bolalar shu olgan bilimlaridan shunday quvonadilarki, ularni hattoki shirinlik yoki yangi o'yinchoq bilan bunchalik quvontira olmaysiz.

Bunday aqliy rivojlanish ota-onalarda faqat mag'rurlikni emas, balki qandaydir xavotirlanishni ham yuzaga keltiradi. Masalan, bunga bir xatni misol qilishim mumkin:

"... Nevaramning ismi Alyosha. Uning yoshi 3,5 da. Lekin u 1,5 yil oldin o'qishni o'rganib olgan. Hozir esa sharillatib o'qiydi. Asosan u sonlarni yaxshi ko'radi va ularni tez yodlab oladi. Qanday qilib? – biz hech tushunmaymiz. Uylarning nomerini, garaj, mashina, mototsikllarning nomerini yoddan biladi. Soat vaqtini minutigacha to'g'ri aytadi. Kitob, konfet, o'yinchoqlarni necha pul turishini biladi. O'nlik masalalarni bir daqiqada echadi. Xohlagan yanvar, fevral, mart oylarini sanasini aytsak, qaysi kunga to'g'ri kelishini aytadi. Kalendardan tekshirsak, juda to'g'ri. Bularni qanday qilib bilishi mumkin? – bizni aqlimiz etmaydi. Bunaqangi bilimni bu kichkintoy qanday qilib o'zlashtirishi mumkin axir? Bunday misollar juda ko'p.

Bizni xavotir olayotgan tomonimiz uning sog'lig'iga zarar emasmi? Uning kelajagi bizni xavotirlantiryapti. Uni nima qilaylik? O'qitaylikmi? Lekin qanday qilib? Hattoki, qo'rqib psixiatrqa murojaat qildik u bolani sog'lom deb topdi. Bu masalani echishga ojizmiz".

Bunday bolalarni maktabga berish yo bermaslik nafaqat ota-onalarni, balki o'qituvchilarning ham muammosi bo'lib qoldi. Lekin bir xil bolalarni maktabga

qabul qilishadi. Lekin bu bolalar 1 yilni o'zida 2-3 sinfni o'qib tugatadilar. Masalan, Dima 3-7 yoshida bir sinfga qabul qilindi. Shu yilning o'zida 3 sinfni tugatdi. 9 yoshida 6 sinfni bitirdi. 13 yoshida maktabni tugatib meditsina inistitutiga o'qishga kirdi.

Ko'pchilik odamlar vunderkindlarni jismonan zaif deb biladilar. Lekin bu xulosa juda noto'g'ri. Vunderkindlarni hammasi aqlan va jismonan soppa – sog'. Bunga isbot uchun 20 – yillarda amerikalik psixologlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotni keltirishim mumkin. Bu tadqiqotga A.Termen boshchilik qilgan. Ular tadqiqot uchun 1,5 ming o'quvchilarni, o'g'il bola va qizlarni saralab oldilar. Ular umumiy aqlan rivojlangan, o'ziga xos xususiyatli 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar edi. Saralash test natijalari va o'quvchilarning xarakteristikasi orqali o'tkaziladi. So'ng bu o'quvchilar 10 yil mobaynida tadqiq etildilar. Bu o'quvchilar boshqalarga nisbatan sog'liqlarining farqi yo'q. Ular ham kasal bo'ladilar, asablari charchaydi. Lekin baribir ular boshqalarga nisbatan sog'lom, har tomonlama rivojlangan, etti muchali sog' bolalardir.

Keyingi yillar ichida ham O'zbekiston psixologiyasida qobiliyat va iste'dod masalalari bo'yicha bir qancha psixologlar ish olib bormoqdalar. Bu sohada B. R. Qodirov, B. S. Sodiqov, E. G'. G'oziev, V. A. Tokareva, Z. T. Nishonova va boshqalarning ishlari ma'lum. Ular ham qobiliyat va iste'dodga o'z ta'riflarini berganlar.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Qobiliyat shaxsning qanday individual – psixologik xususiyati?
2. Qobiliyatning rivojlanishi qanday omillarga bog'liq?
3. Qobiliyatlar rivojlanishining qanday darajasi mavjud?
4. Qobiliyatlar tabiati haqida qanday nazariyalar mavjud?

7-MAVZU: INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK TAFOVUTLARNING UMUMIY VA MAXSUS NAZARIYALARI.

REJA:

1. Individual-psixologik xususiyatlarning gumoral nazariyalari.
2. Psixologik tafovutlarning morfologik yoki somatik nazariyalari.
3. Individual-psixologik xususiyatlar haqidagi nazariyalarining rivojlanish bosqichlari.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:

Gumoral nazariya – individual farqlarni tanadagi suyuqliklar bilan bog'lab tushuntiruvchi qarashlar.

Morfologik nazariya – individual farqlarni tananing tuzilishi bilan bog'lab

tushuntiruvchi oqim.

Asab tizimining kuchi – nerv hujayralarining chidamliligi, ish qobiliyati.

Asab tizimi muvozanati – qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining tenglik nisbati.

Harakatchanlik – qo'zg'aluvchi va tormozlanish jarayonlari almashishining tezligi yoki sustligi.

Biologik omillarning individual-psixologik xususiyatlarga transformatsiyasi (o'tishi, aylanishi) qanday kechishini tushunish uchun differentsial psixofiziologik yoki inson individualligining maxsus nazariyasini ishlab chiqish kerak. Individuallikning shunday maxsus nazariyasi, umumiy nazariyalardan farq qilgan holda, turg'un biologik omillar ta'siri asosida individual – psixologik farqlarning shakllanishi qonuniyatlari va spetsifikatsiyasini ochuvchi holatlarning o'zida mudassamlashtirishi lozim. Ushbu nazariyani yaratishga nisbatan urinishlarni yangilari bilan birlashtirib ko'rib chiqish mumkin. Buning uchun differentsial psixofiziologiyani rivojlanishini to'rt bosqichga ajratiladi.

I. I.P. Pavlovga bo'lgan davr (gumoral, morfologik nazariyalar).

II. 1927 yildan I.P. Pavlov davri bosqichi (markaziy asab tizimi haqidagi nazariyalar)

III. 1956 yildan Teplov – Nebilitsin davri.

IV. 1972 yildan zamonaviy bosqich.

I-Bosqich. I.P. Pavlovga bo'lgan nazariyalarni o'z ichiga oladi.

Qadimdan insonlar o'rtasidagi individual farqlarni tushuntirishga qiziqishgan va shuning natijasida 3 asosiy tizimni izohlab o'tish mumkin.

1. Gumoral nazariya.
2. Morfolagik yoki somatik nazariya.
3. MNSning faoliyatiga asoslangan nazariya.

1. Gumoral nazariyaning eng qadimgi namunalari bo'lib:

A) Hippokrat ta'limoti- individual xususiyatlar 4 suyuqlik: qon, safro, qora safro, balg'am birikmalari, nisbatlari bilan bog'liq.

B) Galen eramizdan avvalgi II asr vrach-anatom. 13 turdagi farqlarni ko'rsatgan.

V) I. Kant 1789 yil "Antropologiya" asarida qonni individual xususiyatlarning tabiiy asosideb qaragan.

G) P.F. Lestgaf (pedagog va vrach-anatom) qon aylanishi tizimining xususiyati; qon tomirlari kengligi, tarangligi, ularning bo'sh joyining diametri, yurak shakli va boshqalar orqali tushuntirishlar hisolanadi.

2. Morfologik nazariya. XX asrning 20 yillari:

A) E.Krechmer. Individual farqlarni tana tuzilishiga qarab belgilagan. U individning psixologik tuzilishiga, uning umumiy konstruksiyasiga to'g'ri kelishi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. U tananing tuzilish tipi ham, psixologik xususiyatlari ham, qonning kimyoviy tarkibi va ichki sekretiya bezlari ajratib

chiqaradigan garmonlar bilan tushuntirish kerak, deb hisoblagan. Masalan, o'zining mezoni bo'yicha tana tuzilishining konstitutsion tiplari ajratadi, jumladan:

1. Astenik tip – ko'krak qafasi uzun va tor, qo'l – oyoqlari uzun, yuzi uzunchoq, sust mushaklar tizimi – shizoid (shizotemik) temperamentga xos. Uning dili tez jarohatlanadi, xafa bo'lishidan tortib, to affektivlik va ta'sirchanlikdan to hissiyotsiz sovuqqonlikkacha hamda befarqlik darajasigacha "psixoastenik" shkala bo'yicha joylashadi. SHizoidlarga yopiqlik, ichki dunyosiga qamalib olish, reaksiyaning tashqi stimullarga mos kelmasligi xosdir.

2. Piknik tipi – ko'krak qafasi keng, keng yag'rinli (korenasto'y), bosh tuzilishi dumaloq, chiqib turuvchi, qorinli kishilar tsikloid (tsiklotimik) temperamentga xos. Ular "diatetik" shkala bo'yicha ketishadi, ya'ni, maniakal sub'ektlarda kayfiyatning doimiy baland va quvnoq bo'lishidan tortib, to depressiv individlarda ruhiyatning doimo past, xafa, mayus bo'lishigacha kuzatiladi. TSikloidlarda qo'zg'atuvchining reaksiyaga mos kelishi, ochiqlik, tashqi muhit bilan birlashib ketishi malakasi, tabiiylik, harakatning rejaliligi, bir tekis bo'lishi bilan xarakterlanadi.

B) U,SHeldon XX asr o'rtalarida faoliyat olib borgan amerikalik psixolog. U ham gormonal tizim individual – psixologik xususiyatlarni boshqaradi deb hisoblagan. U uchta asosiy somatik konstitutsiya tipini ajratgan. (somatotonik tipga mansub). Ularni endomorf, mezamorf, ektomorf tiplarga ajratadi.

Jumladan: 1. Endomorf – tashqi qiyofasi yumshoq va dumaloq, suyak va mushak tizimining kuchsiz rivojlanganligi xos. Vistserotonik temperamentga kiradi. Ular komfort (qulaylik)ni sevadilar va intiladilar, hissiy intilishlari, reaksiyaning bo'shashganligi va sekinligi xosdir.

2. Mezamorf - xatti-harakat, xulq-atvorning keskinligi va shafqatsizligi, suyak – mushak tizim kuchli rivojlanganligi, atletik va kuchli tana tuzilishi xos. Somatatonik temperamentiga mansub. Ulara sarguzashtlarni sevish, xavf – xatarga moyillik, muskul faoliyati bilan bog'liq ishlarni sevish, faollik, botirlik, agressivlik namoyon bo'ladi.

3. Ektomorf - tana qiyofasining nozik – nafisligi, muskul tizimining rivojlanganligi xosdir. TSerebrotonik temperamentga xos.

Unga muloqot va munosabatda kam bo'lish, yolg'izlikka moyillik, yuqori reaktivlik xosdir.

U. SHeldon psixologik belgilar qatoriga tarbiya va ijtimoiy muhit belgilab beruvchi xususiyatlarni ham kiritgan.

YUqoridagi fikrlar asosida quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. SHaxsning psixologik rivojlanishi konstitutsion xususiyatlarga bog'liq.

2. Tana qiyofasi unga irsiy yo'l bilan beriladi.

3. Demak, agressivlik va befarqlikka nisbatan moyillik mavjud bo'lishi ehtimol.(Fiziognomika bilan bog'liq tomonlari).

II-bosqichda I. P. Pavlovning markaziy asab tizimi (M.N.S) ning

xususiyatlariga asoslangan nazariyasi mohiyatini tahlil qilamiz.

A) I.P.Pavlov asab tizimining uchta xususiyatini dalillab bergan.

1. M.N.Sning qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kuchi.

2. Muvozanati.

3. Ildamlilik darajasi.

1. Qo'zg'alish va tormozlanish kuchi hujayradagi fiziologik moddalarning miqdori bilan belgilanadi.

2. Muvozanat qo'zg'alish va tormozlanish kuchi darajasining teng barobar holda tutib tura olish qobiliyati.

3. Asab tizimining ildamligi miya po'stining qismidagi qo'zg'alishining tormozlanish bilan tormozlanishining qo'zg'alish bilan o'ziga xos almashinishidan iborat.

III – bosqich B.M.Teplov va V.D.Nebilitsin ishlaridan iborat bo'lib, 1950 yilda B.M.Teplov boshchiligidagi inson oliy nerv faoliyati (ONF) tipologik xususiyatlari bo'yicha tadqiqot olib boruvchi laboratoriya ochilgan. Ularning I.P.Pavlovdan farqi insonlarga "I.P.Pavlov g'oyalari" ni tadbiiq etilganligidir. Keyinchalik laboratoriya bir qator mustaqil ilmiy bo'limlarga bo'linib ketgan. Ular individual – psixologik farqlarning tabiiy asoslarini, shuningdek, turli amaliy jihatlarining o'rganishgan.

Ularning yangiliklari: I.P.Pavlovning asab tizimining kuchi, muvozanati, ildamligi kabi xossalarga qo'shimcha qilib o'n besh o'lchamli xususiyatlar tizimini kiritishgan, shundan 10 tasi birlamchi, 5 tasi esa ikkilamchi- kuchi, labilligi, ildamligi, dinamikligi, qo'zg'alish bo'yicha kontsentratsiyasi (to'planishi), tormozlanish bo'yicha kontsentratsiyasi, birlamchi xususiyatlarining har biri bo'yicha muvozanat (kuchi bo'yicha muvozanati va hokazolar).

1. Kuchi – nerv hujayralarida uzoq muddat davomida to'plangan qo'zg'alishni tormozlanishga o'tmay chidash holati.

2. Muvozanat – qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarini tenglik nisbati.

3. Ildamlilik – qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining almashishini tezligi yoki sustligi.

4. Dinamiklik – qo'zg'alish va tormozlanishning asab tizimida engil generalizatsiyasi (o'zgarishi), muvaqqat bog'lanishlarning shakllanishiga javob berishi.

5. Labillik – stimullar seriyali, berilganda birinchi qo'zg'alish tsiklining almashish tezligining, qo'zg'alish impulsi ta'siridan so'ng ta'sirlanishning o'chish tezligi.

B.P.Teplov va V.D.Nebilitsin tomonidan "Partsiiallik fenomeni topilgan". Buning mazmuni asab tizimi xususiyatlari turli analizatorlarda keskin farq qilishi mumkinligi demakdir. SHuning uchun asab tizimi xususiyatlari haqida emas, balki analizatorlar yuzasidan gapirgan to'g'riroq bo'ladi. Masalan, analizator haqida B.M.Teplov va V.D.Nebilitsin asab tizimi xususiyatlari faoliyatining individual uslubi, xotira, temperament, kasbiy layoqat va boshqalarni belgilab beruvchi muhim aniqlovchi (determinant) ekanligini ko'rsatadi.

IV-bosqich. XX asrning 70-yillaridan differetsial psixofiziologiyaning yangi

bosqichi boshlangan. Uning ikkita sababi bor:

1. Partsiallik fenomenini yo'qotish.
2. Miya faoliyati haqidagi yangi qarashlarning vujudga kelishi.

Differentsial psixofiziologiya kompleks fandır. U o'zida faqat psixologik tushuncha, kategoriya, tadqiqot metodlarini emas, balki psixofiziologik kontseptsyani ham mujassamlashtiradi. SHuning uchun psixologiya yoki psixofiziologiyadagi biror o'zgarish differentsial psixofiziologiyadagi kontseptual va metodik apparatlarning o'zgarishiga olib keladi.

Differentsial psixofiziologiyadagi zamonaviy bosqichning vakillariga P.K.Anoxin va uning shogirdlari misol bo'ladi. P.K.Anoxin nartsiallik fenomeniga metodikaning to'g'ri kelmasligi yoki natijalarning noto'g'ri baholanishi emas, balki asab tizimining shartli reflekslari kontseptsiyasining to'liq emasligini aniqlandi. An'anaviy xususiyatlar – klassik refleks, reflektor yoyi yoki yopiq funktsiyalarning turli tomonlari shartli reflekslar alohida miya tuzilishiga ega bo'lishlgidan kelib chiqib yoy xususiyatlariga bog'liq xususiyatlar lokal miya tuzilishiga ega bo'lishi kerak, degan qarash paydo bo'ldi. Bu yangi bosqichning tadqiqotlarini vujudga keltiradi.

P.K.Anoxinning tizimli kontseptsiyasiga ko'ra, asab tizimi xususiyatlariga nerv faoliyatining nerv jarayonlarining yaxlit, umumiy miya integratsiyasining holatlarida aks etadigan xarakteristikalar kiradi. tizimli yondashish asab tizimining "ishlash qobiliyati", "chidamligi" kabi tushunchalarning neyrofiziologik mazmunini ochish imkoniyatini beradi deb hisoblash mumkin. Bu borada eksperimental tajribalar qilinmoqda. Jumladan, bir qancha tadqiqotlarda genning determinantligi va EEG (elektroentsofalogramma)ning reaktiv o'zgarishlari ko'rsatilgan. EEG metodi bilan olingan analizlar bizga miya aktivligining energetik tarkibi uchun xizmat qiladigan qobiqosti tuzilmalarni irsiyat tomonidan qattiq nazorat ostida ekanligini taxmin qilishga imkon beradi, bu esa neyrofiziologik funktsialar bilan bog'liq, xususan irsiy determinantlikning o'ziga xosligini EEG orqali aniqlash deganidir. Bu qiyin savol hali o'z javobiga ega emas. Asab tizimining o'ziga xosligi to'g'risidagi kontseptsyani o'rganish kelajakdagi yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Gumoral nazariyalarning namoyondalari kimlar?
2. Morfologik nazariyalarning kamchiligi nimada deb hisoblaysiz?
3. I.P.Pavlov asab tizimining qanday xususiyatlarini o'rgangan?
4. B.M. Teplov va N.D. Nebilitsinlar tomonidan asab tizimining qaysi xususiyati kashf qilingan?

8-MAVZU: GENOTIP VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARNING SHAKLLANISH MUHITI

REJA:

1. Genotip va fenotip haqida tushuncha.
2. Irsiyat va muhit ta'sirini o'rganish yo'nalishlari.
3. Individual – farqlar tabiati.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:

Genotip – organizmning ota-onadan olgan genlari yig'indisi.

Fenotip – organizmnining kuzatilishi mumkin bo'lgan morfologik, jismoniy va xulq-atvoriga xos belgilari yig'indisi.

Irsiyat – muayyan belgilarning ajdoddan – avlodga o'tishi.

Muhit – organizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli-tuman omillar yig'indisi.

Genotip (grekcha genos – kelib chiqish, typos – shakl, namuna) – organizmning ota-onasidan olgan genlari yig'indisi, genetik konstitutsiyasidir (tuzilishi).

Genotip tushunchasi 1930 yilda daniyalik biolog olim B. Iogannsen tomonidan kiritilgan. Har qanday mikroorganizmlar, o'simliklar va hayvonlar turi o'ziga xos genotipga ega. SHu bilan birga tur ichidagi har bir organizmning ham o'z genotipi bor. Genotipi bir – biriga yaqin bo'lgan kishilar bu monozigot egizaklardir.

Fenotip (grekchada phaino –aniqlamoq, typos –shakl, namuna) – organizmga xos bo'lgan morfologik, fiziologik va xulq-atvor belgilari bo'lib, uni kuzatib o'rganish mumkin.

Fenotip tushunchasini ham fanga B. Iogannsen tomonidan 1909 yilda kiritilgan, fenotip muhit va genotipning o'zaro ta'siri mahsulidir organizm taraqqiyotida fenotip va genotip o'rtasidagi munosabat farq qiladi. Lekin ijtimoiy xususiyatlar yig'indisini fenotip deb atash qabul qilinmagan.

Individual farqlar individning irsiyati va uning muhiti o'rtasidagi ko'p sonli va murakkab o'zaro ta'sirlar natijasida hosil bo'ladi. Irsiyat ota-onadan o'tuvchi genlarda saqlanadi. Ajdoddan avlodga o'tuvchi organizmning tabiiy xususiyatlarining birligi irsiyat hisoblanadi. Agar genlarda ximiyaviy (kimyoviy) balansning buzilishi yoki ularni to'liq bo'lmasligi mavjud bo'lsa, rivojlanayotgan organizm jismoniy anomaliya bilan bir qatorda jiddiy aqliy zaiflikka ega bo'lish ham mumkin. Ammo bunday patologik buzilishlar chiqarib tashlansa, irsiyat xatti-harakatlar, xulq - atvor rivojlanishiga juda keng imkoniyatlarni ochadi. Bu chegaralar ichida rivojlanish jarayonining natijasi uning tashqi muhitiga bog'liq bo'ladi.

Muhit o'z ichiga individ embrionlik paytidan boshlab, to umrining oxirigacha ta'sir ko'rsatuvchi ta'sirlar yig'indisini oladi. U turli xil o'zgarishlar:

ob-havo va ovqatdan boshlab, to ta'lim olishning qulay sharoitlari va do'stlarining munosabatlarigacha aks ettiradi.

Muhit o'zining ta'sir kuchini individ tug'ilmasidan oldinroq boshlaydi. Ona qornida oziq moddalarning etishmasligi, zaharli moddalar va boshqa fizik, kimyoviy sharoitlar ham jismoniy, ham aqliy rivojlanishga tuzatib bo'lmas salbiy asoratlar berishi mumkin. SHuning uchun tug'ilganda ega bo'lgan xususiyatlarni ko'pincha tug'ma deb, xato aytiladi. Ularning irsiy bo'lishi shart emas. Masalan, bolalik davrida miya shikastlanishi natijasida vujudga kelgan aqliy zaiflik organik tabiatga egadir.

Irsiyat va muhit o'rtasidagi aloqani o'zaro ta'sir etish tarzida ifodalash ma'qulroqdir. Bu degani, muhitning u yoki bu omili u ta'sir qilayotgan irsiy material spetsifikasiga (maxsusligiga) bog'liq holda turli xil ifodalangan holda vujudga kelishi mumkinligini bildiradi. Masalan, uyda mavjud bo'lgan kuy va qo'shiqlar yozilgan kassetalar soni va sifati bolaning musiqa eshitish qobiliyatini rivojlanishiga kuchli ta'sir qilishi mumkin, lekin kar bolaga u hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va aksincha, u yoki bu irsiy omil tashqi muhitning turli sharoitlarida turlicha yuzaga kelishi mumkin. Yoinki, bir jinsdagi ikki egizakning birini sistematik (doimiy) olti oy davomida to'ydirib ovqatlantirilsa, ikkinchisi yarim och dietada boqilsa, ularning og'irligida keskin farq bo'ladi.

Xatti-harakat, xulq-atvor rivojlanishiga irsiy va muhit olimlari ta'sirini tadqiq etish uch yo'nalishida olib boriladi.

1. Xatti-harakat, xulq-atvorning belgilari bo'yicha sun'iy tanlash (selektsiya).

2. Tarbiya sharoitlari turlarining o'zgarishi.

3. Oiladagi psixologik xususiyatlaridagi o'xshashlik va farqlarning statistik tadqiqoti.

Birinchi tadqiqot yo'nalishini ko'rib chiqamiz. Xatti-harakatlari, xulq-atvorlarining belgilari bo'yicha sun'iy tanlash hayvonlarning bir qancha turlarida muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Masalan, kalamushlarni labirint bo'yicha o'tishga o'rgatilgan guruhidan bir qancha avlodlar davomida ikkita turli zot o'sishi mumkin - "aqlli" va "ahmoq" kalamushlar.

Sun'iy selektsiyani qo'llashning boshqa bir tadqiqot yo'nalishi irsiyat va muhitning ta'siriga yaxshi misol bo'la oladi. Agar kalamush zotlarining ikkalasi ham chegaralangan muhit sharoitida o'stirilsa, u holda ular vazifani tabiiy sharoitlarda o'stirilgan "aqlsiz" kalamushlar singari yomon bajarishgan.

Boshqa tomondan xarakat aktivligi (faolligi) uchun keng imkoniyatlar beruvchi va turli xil stimulyatsiya (ta'sir)lar bilan boyitilgan muhitda "aqlsiz" zotni yuqori darajada o'rgatilishi yuz bergan: ikkala guruh ham tabiiy sharoitlarda o'sgan "aqlli" kalamushlarning taxminiy darajasini egallashgan.

Ikkinchi tadqiqot yo'nalishi ya'ni irsiyat va muhit omillarining ta'siri hayot tajribasini sistemali (doimiy) o'zgartirishda xatti-harakat, xulq-atvordagi turli o'zgarishlarni tahlilidan iborat. Bunday tadqiqot yo'nalishi maxsus mashqlar (trenirovka) tashkil etish yoki spetsifik (maxsus) funktsiyalarni, tabiiy mashqlarning oldini olish, yo'qotishni nazarda tutadi.

Masalan, eksperimentlarning ko'rsatishicha, ilgari to'liq instinkt deb

hisoblangan, ya'ni o'rgatishga bog'liq bo'lmagan (in qurish, naslga qayg'urish) hayvonlarning aktivliklari (faolliklari) avvalgi tajribaga bog'liq ekanligi ma'lum bo'lgan.

Maymunlarda o'tkazilgan bir qator tajribalar o'rganishga bo'lgan qobiliyatga mashqlarning ta'sirini ko'rsatadi. Bu qobiliyatni yaxshilanishi shakllangan bir turdagi son topshiriqni echa olish tajribasi evaziga hayvonlar umuman boshqa tipdagi vazifani uddalay olishadi.

Kichik yoshdagi egizaklarda nazorat usuli qo'llanilgan: bunda egizaklarni biriga intensiv mashq, chunonchi, stulga chiqish – tushish va hokazo, ikkinchisiga esa erkin rivojlanish sharoiti yaratilgan. Katta yoki boshqa tadqiqotlarda madaniy chetlangan muhit, masalan, mehribonlik uylaridagi va oilaviy sharoitlarda tarbiyalangan bolalarning rivojlanishi solishtirilgan. Cheklangan muhitda tarbiyalangan bolalarga jiddiy aqliy zaiflik ma'lum bo'lgan, kuchli aqliy zaiflik katta yoshdagilarda kuzatilgan.

Uchinchi, ya'ni irsiyat va muhit omillarini xatti-harakat, xulq-atvor rivojlanishiga ta'sirini o'rganish, oiladagi ma'lum belgi va xususiyatlarning o'xshashligi va farqini statistik tahlil qilishni taqozo etadi. SHu narsa ma'lum bo'ldiki, irsiy aloqalar qanchalik yaqin bo'lsa, test ko'rsatkichlari ham o'xshash bo'lar ekan.

Masalan, ko'pincha intellektual testlarda bir jinsdagi egizaklarning ko'rsatgichlari 0,90 ga teng bo'lgan korrelyatsion (o'zaro aloqasi nisbati) bog'lanishni ko'rsatgan, turli jinsdagi egizaklar 0,70 ga yaqin, oddiy aka – singil, bitta ota-onalarning bolasi 0,50 ko'rsatkichga erishgan. Ammo shu narsani hisobga olish kerakki, oila bir vaqtning o'zida ham madaniy, ham biologik birlikni tashkil etadi. Bir oiladagi kishilar irsiyati qanchalik yaqin bo'lsa, ularning bir – biriga ta'sir darajasi, hayotining tashqi sharoitlari ko'proq bir – biriga o'xshash bo'lishi kerak. Alohida – alohida tarbiyalangan bir jinsdagi egizaklarni tadqiq etish, irsiyat va muhit omillarini chegaralash imkoniyatini beradi. Ammo bu tadqiqotlardagi ayrim nazorat qilib bo'lmaydigan sharoitlar jiddiy hulosalar qilishga xalaqit beradi.

Endi bevosita farqlar to'g'risida mulohaza yuritamiz. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, erkaklar ayollardan harakat tezligi va koordinatsiyasini, fazoda orientatsiya qilish, mexanik munosabatlarni tushunish, matematik fikrlash bo'yicha, ayollar esa erkaklardan qo'l chaqqonligi, idrok tezligi, hisoblash, xotira, nutq tezligi (hid sezish, sezgirlik) va boshqa nutq ko'nikmalarini o'z ichiga oluvchi vazifalar bo'yicha ustun turishar ekan.

Erkaklarda asosiy shaxsiy belgilar ichida yuqori darajada agressiv (tajovuzkor)lik, kasb egallash motivi, emotsional turg'unlik, ayollarda esa ijtimoiy orientatsiya keskin ifodalangan bo'ladi.

Qobiliyat va shaxsiy belgilarning jinsiy farqlari ham biologik, ham madaniy omillarga bog'liqdir. Biologik sharoitlarning ta'siri to'g'ridan – to'g'ri bo'lishi mumkin, masalan, erkaklar jinsiy garmonlarining xatti - harakat, xulq-atvorning agressivlikdagi roli yoki bevosita, ijtimoiy sharoit va tabiiy ta'limning bolalarga nisbatan qizlarning tez rivojlanishiga ta'siri kuzatiladi. Madaniyatning hissasi, zamonaviy madaniyat va turli tarixiy davrlar davomida keng jinsiy rollarning

farqlanishini ko'rsatadi.

Agar individlarning kelib chiqishi, professional darajasi, yashash joyi (qishloq yoki shahar) millati bo'yicha tasniflansa, ko'pincha guruhiiy farqlar sifatida bolalarni tarbiyalash usullarida, seksual xatti-harakatlari, xulq-atvorlarda, emotsional reaksialarida, qiziqish, munosabat va qobiliyatni baholovchi ko'pgina testlarni bajarish suratida tafovutlar borligini ko'rish mumkin. Barcha bunday solishtirishlarda guruhning farqlanish xarakteri va darajasi tadqiq etilayotgan belgi, xususiyatga bog'liq ekanligi diqqat markazida turadi. Chunki har bir madaniyat va submadaniyat, shu madaniyatga xos qobiliyat va shaxsiy belgi, xususiyatlar birligining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, individlarni global ko'rsatgichlaridan IQ yoki umumiy emotsional kayfiyati bo'yicha solishtirish muhim ahamiyatga ega bo'lmasligi hech qanday ma'no kasb etmasligi ham mumkin.

Irqlar ma'lum genlarning ko'p uchrashi nisbati bo'yicha farq qiluvchi populyatsiyadir.

Guruh geografik yoki ijtimoiy sabablar bilan nisbatan izolyatsiyada qolganida shakllanib, uning natijasida ushbu guruh a'zolari o'rtasidagi nikohlar ko'payadi. Izolyatsiya madaniy va irqiy farqlarning asosiy sabablaridan biri bo'lganligi uchun biologik va madaniy omillarning irqni kelib chiqishdagi hissasini aniqlash qiyinlashadi.

Hozirgi davrda bor bo'lgan ma'lumotlar to'liq emas, binobarin, maxsus eksperimental vaziyatlarni tadqiq etish yo'li bilan o'tkazilgan tadqiqotlar irqiy psixologik farqlarning biologik sabablarini emas, balki madaniy sabablarini kuchli, deb hisoblash imkoniyatini beradi. Irqlarni guruhiiy solishtirilganda, guruhlar o'rtasidagi o'rtacha farq har bir guruh ichidagi individual farqlar diapozonidan ancha kam. Hatto ikkita guruhning o'rtacha kattaligi kuchli farq qilsa ham, o'rta ko'rsatgichi past bo'lgan guruhlarda, o'rtacha ko'rsatgichdan yuqori bo'lgan individlar topiladi.

Individning qaysidir guruhga tegishligiga asosan, unda u yoki bu psixologik belgi, xususiyat kuchli rivojlanganligini aniqlashga harakat qilish yomon asos bo'lib hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Fenotip va genotip tushunchalari o'rtasida qanday farq mavjud?
2. Qanday xususiyatlar nasliy va qaysilari tug'ma bo'lishi mumkin?
3. Tug'ma xususiyatlar nasliy bo'lib qolishi mumkinmi?
4. Individual xususiyatlar nimalarda namoyon bo'ladi?

9-MAVZU. DIFFERENTIAL PSIXOLOGIYADAGI QARASHLAR TARIXI

REJA:

1. Differentsial psixologik rivojlanishidagi eng sodda (primitiv) qarashlar.
 - a) Astrologiya .
 - b) Xiromantiya.
 - v) Fiziognomika.
 - g) Frenologiya.
2. F. Galtonning differentsial psixologiya rivojlanishidagi xizmatlari.
3. Spirmen, A. Bine va differentsial psixologiya.
4. B. G. Ananov, B. M. Teplov va V. D. Nebelitsinlarning differentsial psixologiya taraqqiyotiga qo'shgan hissi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar.

Astrologiya – osmon jismlarining erga jumladan inson xulq-atvoriga ta'sirini o'rganuvchi ta'limot.

Fiziognomika – insonning tashqi ko'rinishini psixologik xususiyatlari bilan bog'lovchi yo'nalish.

Frenologiya – inson xulq-atvori bosh suyagining tashqi shakli bilan bog'liq deb tushuntiruvchi ta'limot.

Xiromantiya – kaftdagi chiziqlarga qarab, inson taqdiri va xulq-atvorini aniqlash.

Insonlar o'rtasidagi tafovutlarni o'rganish qadim-qadimdan odamlar e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Kishilar xulq-atvorini, hatti-harakat sabablarini turli narsalar va hodisalar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qilganlar. Turli tuman qarashlar tizimini o'ylab topganlar. Eng qadimgi ana shunday qarashlardan biri astrologiyadir.

Astrologiya (yunoncha “astron” yulduz, logos - ta'limot) – osmon jismlarining, erdagi hayotga, shuningdek insonlar taqdiri va xulq-atvoriga ta'sirini o'rganuvchi eng qadimgi ta'limot. Astrologiyadan qadimgi suriyaliklar, misrliklar, yunonlar, arablar keng foydalanishgan.

Keyinchalik astrologiya – ekzoterik – keng omma uchun ma'lum bo'lgan, ezoterik – ayrim jihatlar sir tutiladigan yoki yo'qotilgan qarashlarga bo'lingan. Astrologiya ayniqsa qadimgi Xitoy va Hindistonda rivojlangan. Evropada astrologiya o'rta asrlarda Hindiston astrologiyasining moslashtirilgan varianti sifatida paydo bo'ldi. Astrologiyaning asosini makrokosm va mikrokosm o'rtasidagi an'anaviy o'zaro ta'sirining mantiqiy tizimi tashkil etadi. SHu bilan

birga uning asosini aksioma sifatida qabul qilingan tayanch tamoyillar tashkil etadi. Ulardan eng asosiysi ob'ektlar rivojlanishidagi tsiklik (davriy) qonuniyatlar mavjudligidir. Ilmiy psixologiyada astrologik bilimlar ilmiy ma'lumot sifatida qabul qilinmaydi, biroq kosmobiologiya tomonidan er va kosmos (fazo) o'rtasidagi ta'sir, fazoviy tsikllarning inson salomatligi va biologik faolligiga ta'siri o'rganilmoqda.

Xiromantiya – (yunoncha cheir –qo'l, manteia – fol ochish) kaftdagi chiziqlarga qarab inson individualligi, uning taqdiri va xarakter xususiyatlari haqidagi eng qadimgi fol ochish turlaridan biridir. Xiromantiya juda qadimda paydo bo'lgan bo'lib, u hindular, yahudiylar, yunonlar, rimliklar ma'lum bo'lgan. Evropada xiromantiya XVI – XVIII asrlarda gullab yashnadi. Ko'plab nemis va ba'zi evropa universitetlarida xiromantiya kafedralari faoliyat ko'rsatgan. Xiromantiya astrologiya bilan uzviy bog'liq. SHuning uchun ham kaftdagi burmalar (ko'tarilgan joylari) osmon jismlari nomi bilan bog'liq. Masalan, Quyosh, Venera, YUpter, Saturn, Merkuriy, Mars va oy. Xiromantiyaga oid ilmiy fikrlar dastlab XII asrda paydo bo'lgan bo'lsa, so'ngra 1686 yili Molpigi tomonidan inson kafti va barmoqlaridagi chiziqlarning xususiyatlari haqida ma'lumotlar bergan. XIX asrda esa chexiyalik olim YAn Purkine tomonidan bu yo'nalishda bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Keyinchalik uning asosida dermatoglifika ya'ni qo'ldagi teri burmalariga qarab inson xulq-atvorini o'rganish haqidagi yo'nalish paydo bo'ldi. Mutaxassislarning fikricha, bola qo'lidagi chiziqlar embrionning 3 – 4 oyidayoq paydo bo'lar ekan.

Fiziognomika (yunoncha physis – tabiat, gnomon - biluvchi) – insonning tashqi ko'rinishi bilan shaxsning muayyan tipiga bog'liqligi o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganuvchi ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra tashqi belgilarga qarab insonning psixologik xususiyatlari haqida ma'lumot berish mumkin. Bunday qarash juda qadimda ruhiyatning tanaga bog'liqligi unga tabiat tomonidan avvaldan berilgan degan qarash asosida paydo bo'lgan.

Ko'p asrlar davomida frenologiya xarakter tipologiyalarining juda ko'p na'munalari yaratilishiga sabab bo'lgan. Lekin bu qarashlar ilmiy asosga ega bo'lmagan.

Fiziognomikada quyidagi tashqi tuzilishlarga ko'ra insonlar xulq-atvori, harakatlari izohlangan:

- 1) Sochlar – rangi, qalinligi, tolasini qattiqligi;
- 2) Qoshlar – rangi, qalinligi, tolasining qattiqligi;
- 3) Qovoqlar – qalinligi, shakli;
- 4) Kipriklar – qalinligi, uzunligi;
- 5) Ko'zlar – shakli, rangi, ifodalanishi;
- 6) Quloqlar – shakli, katta – kichikligi;
- 7) Burun – shakli, uzunligi, katta – kichikligi;
- 8) Yonoqlar – rangi, shakli;

- 9) Og'iz – hajmi, shakli, holati;
- 10) Tishlar – hajmi, shakli, rangi;
- 11) Lablar – shakli, rangi;
- 12) Jag'lar – shakli, katta – kichikligi;
- 13) Bo'y va tananing mutanosibligi va boshqalar.

Fiziginomikaga oid qarashlar uzoq yillar davomida yashab kelayotgan bo'lsa ham u hamma uchun birday mos keladi deb aytib bo'lmaydi.

Frenologiya (yunoncha phrenos – jon, axloq, xarakatlar va logos - ta'limot) – inson psixik xususiyatlarini bosh suyagining tashqi ko'rinishi bilan bog'lovchi, F. Gall tomonidan ishlab chiqilgan ta'limot. Uning asosiy g'oyasi bosh miya po'stloq qismi bir necha markazlardan iborat bo'lib, har bir markaz u yoki bu qobiliyatning nomoyon bo'lishi uchun ma'suldir. Mazkur qobiliyatning kuchli rivojlanishi shu markazning ham kuchli rivojlanishiga olib keladi. Uni tashqaridan sezish mumkin bo'lgan “shish” yoki “bo'rtik”, “g'urra” lar shaklida paypaslab aniqlab ko'rish mumkin. Maxsus “frenologik xarita” yordamida esa qaysi qobiliyat kuchli rivojlanganligini aniqlanadi. XIX asrda frenologiyadan psixodiagnostik metod sifatida foydalanilgan. Biroq bosh miyani ko'p martalab ochib ko'rish shuni ko'rsatadiki, bosh miyaning shakli kalla suyagida unchalik aks etmaydi. Bosh suyagidagi g'urra va ko'tarilgan joylarga qarab aqliy va axloqiy qobiliyatlarni aniqlash ilmiy bo'lmagan, hech qanday asosga ega bo'lmagan g'oyadir. Biroq Gallning bosh miya yarim sharlari po'stloq qismida markazlarning lokalizatsiyasi (joylashuvi) haqidagi qarashlari 1870 yilda Frach va Pittsiklar tomonidan tasdiqlandi. Psixomotor markazlar lokalizatsiyasi (aloxida markazlarga joylashuvi) ko'p sonli tajribalarda ham o'z tasdig'ini topgan.

Ilmiy jihatdan asoslangan differentsial psixologiyaning eksperiment genetik va matematik metodlarining qo'llanilishi sabab bo'lgan.

Yangi yo'nalishning eng birinchi yirik namoyondalari F. Galton, A. Bine, A. F. Lazurskiy, D. J. Kettel va boshqalar bo'lishgan.

Frensis Galton (1822-1911) birinchi bo'lib eksperimental va matematik metodlar yordamida odamlar o'rtasida individual – psixologik tafovutlar mavjudligini asoslab bergan. Ch. Darvinning evolyutsion ta'limotiga asoslanib Galton bu tafovutlar irsiy omillar ta'siriga bog'liq deb tushuntiradi. SHaxs shakllanishida irsiyatning rolini ko'rsatish o'sha davr uchun ilg'or fikr hisoblangan bo'lsa ham, uning rolini oshirib baholash muammoni bir yoqlama yoritish insonning ijtimoiy mohiyatini rad etishga olib keladi.

Shaxs psixik xususiyatlarini diagnostika qilish maqsadida bir necha priborlar kashf qilgan, ulardan laboratoriya tadqiqotlarida keng foydalangan. Irsiyat va tashqi ta'sirlar o'rtasidagi munosabatni o'rganish uchun egizaklar metodi, g'oyalar assosiatsiyasi, obraz xotirasini o'rganish metodlarini ishlab chiqqan.

Galton jismoniy va psixik xususiyatlar o'rtasida korrelyatsion aloqa mavjud

deb, uni o'rganishning matematik – statistik metodini yaratgan sotsiologiya va psixologiyada keng qo'llaniladigan omilli tahlil metodi, individual xususiyatlarni o'rganishda test metodidan foydalanish mumkinligi haqidagi fikrlari bilan F. Galton differentsial psixologiya rivojiga juda katta hissa qo'shgan.

Alfred Bine (1857 - 1911) – frantsuz psixologi, Frantsiyada eksperimental psixologiyaning asoschisi. Testlar haqidagi ta'limot asoschilaridan biri. Bine tomonidan ong va shaxs patologiyasi, tajriba metodi, obrazli tafakkur va oliy psixik jarayonlar, ta'sir etish, gipnotizm, musiqaviy xotira, bolalar hissiyoti, grafologiya, maktab psixologiyasi va deffektologiyasi, san'at psixologiyasi, individual psixologiya, kichik guruhlar psixologiyasi, aqliy charchash muammolari o'rganib chiqilgan. A.Bine psixologiyada tadqiqotning ob'ektiv metodlaridan foydalanish zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Aqlni o'lchash testlarining muallifi sifatida ham A. Bine differentsial psixologiya tarixiga kirgan.

Charlz Spirmen (1863 - 1945) ingliz psixologi. Psixologiyada intellektning tarkibini statistik metodlar yordamida o'rganish mumkinligi haqidagi fikrlar muallifi. Spirmen topshiriqlarni bajarish natijalari o'rtasidagi o'zaro korrelyatsiyani o'rganish va omilli tahlildan foydalanish asosida intellektning ikki omilli nazariyasini yaratdi. Uning fikricha, intellekt har qanday faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydigan umumiy omildan hamda alohida vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus omildan iborat bo'ladi. CH. Spirmenning psixologik tadqiqot natijalarini tahlil qilishda korrelyatsion bog'lanishlarni aniqlash usuli hozirda ham keng foydalaniladi.

Ananov Boris Gerasimovich (1907 - 1972) rus psixologi. Odam haqidagi barcha fanlarni sintez qilish orqali odamni o'rganadigan kompleks soha yaratish kerakligi haqidagi fikr muallifi.

B. G. Ananov "Odam bilish predmeti sifatida" ("Chelovek kak predmet poznaniya") asarida odamni o'rganadigan fanlarni to'rt guruhga bo'lgan:

- 1) odam biologik tur sifatida;
- 2) individ sifatida odamning hayot yo'li va ontogenezi;
- 3) odam shaxs sifatida;
- 4) insoniyat muammolari;

B. G. Ananov inson tuzilmasi nerarxiasini – individ, shaxs, individuallik darajasiga ajratgan. Uning fikricha, inson individualligi odamning shaxs va faoliyat sub'ekti sifatidagi xususiyatlari bilan odamning individ sifatidagi tabiiy xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi.

Teplov Boris Mixaylovich (1896 - 1965) rus psixologi. Dastlab idrok psixologiyasi sohasida tadqiqotlar olib borgan. So'ngra individual tafovutlar psixologiyasi muammolari bilan shug'ullangan. Ayniqsa inson qobiliyatini empirik usullar yordamida o'rganish zarurligini haqidagi g'oyani ilgari surdi. Uning "Individual tafovutlar muammosi" kitobi ("Problema individualnix razlichiy") 1961 yilda nashr qilingan.

B.M. Teplov, I. P. Pavlovning oliy nerv faoliyati fiziologiyasi haqidagi ta'limotini rivojlantirib, yangi yo'nalish differentsial psixofiziologiyaning paydo bo'lishiga hissa qo'shgan. Oliy nerv faoliyati, asab tizimi xususiyatlarining individual xususiyatlar shakllanishiga ta'siri masalasini atroflicha o'rganib chiqqan.

Nebilitsin Vladimir Dimitrievich (1930 - 1972) – rus psixologi. B. M. Teplovning asab tizimi kuchi va sezgirlikning teskari aloqasi haqidagi farazini tajriba orqali asoslab, individual – psixologik xususiyatlarning fiziologik asoslarini tadqiq etishning omilli tahlil va elektroentsefalografiya metodini tadbqiq etgan olim. Bu unga asab jarayonlarining dinamikligi xossasini kashf qilish imkonini berdi. Asab tizimi tipologik xususiyatlarining turli faoliyatda namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan.

Mavzu yuzasidan nazariy savollar.

1. Sizningcha individual – psixologik xususiyatlar ko'proq nimada namoyon bo'ladi?
2. Fiziognomika, Frenologiya va Xiromantiyaga xos kamchiliklar nimada ifodalanadi?
3. Galtonning differentsial psixologiya taraqqiyotidagi hissasi nimada?
4. Differentsial psixologiya rivojiga hissa qo'shgan rus olimlarining xizmatini baholang.

10 – MAVZU: ONTOGENEZDA PSIXIK RIVOJLANISHNING TURLI BOSQICHLARI.

REJA:

1. Psixologiyada ontogenetik rivojlanish bosqichlarini davrlashtirish muammosi.
2. Maktabgacha davrda shaxs individualligining shakllanishi.
3. Kichik maktab yoshida shaxs individualligining namoyon bo'lishi.
4. O'smirlik davrida individual psixologik xususiyatlar taraqqiyoti.
5. O'spirinlik davrining ontogenezdagi o'rni va ahamiyati.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar.

Ontogenez – individning rivojlanish jarayoni.

Filogenez – turning rivojlanish jarayoni.

Senzitiv davr – u yoki bu xususiyatning rivojlanishi uchun qulay davr.

Yetakchi faoliyat – shaxs taraqqiyotining ma'lum davridagi asosiy faoliyat turi.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananov singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug'ullanuvchilar safi kengayib bordi, shu boisdan tabaqalanish kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan o'zaro keskin farqlanadi. hozir yosh davrlarini tabaqalash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarin muayyan guruhlariga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir. L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib yosh davrlarin quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. CHaqaloqlik davri inqirozi.
2. Go'daklik davri – 2 oylikdan 1 yoshgacha.
Bir yoshdagi inqiroz.
3. Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3 yoshdagi inqiroz.
4. Maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri – 8 yoshdan 12 yoshgacha.
13 yoshdagi inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy etilish) davri – 14 yoshdan 18 yoshgacha.
17 yoshdagi inqiroz.

Olim o'z asarlarida har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur ilmiy tariflay olgan. Eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq bu mulohazalarida ancha munozarali, baxsli o'rinlar ham uchraydi. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar roli to'g'risidagi mulohazalari va olg'a surgan g'oyalari hozirgi kunnning talabiga mosdir.

L.S. Vigotskiy shogirdi L.I.Bojovich insonning kamol topishini yosh davrlariga bo'lishda motivlarni asos qilib olidi, shuning uchun bu bo'lishni motivatsion yondashish, deb atash mumkin. L.I.Bojovichning mulohazasiga ko'ra yosh davrlari quyidagi bosqichlardan iborat:

- Birinchi bosqich – chaqaloqlik; tug'ilgandan 1 yoshgacha;
- ikkinchi bosqich – motivatsion tasavvur; 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- uchinchi bosqich – “men” ni anglash davri; 3 yoshdan 7 yoshgacha;
- to'rtinchi bosqich – ijtimoiy jonzotlikni anglash davri; 7 yoshdan 13 yoshgacha;
- eshinchi bosqich – a) o'z-o'zini anglash davri; 12 yoshdan 14 yoshgacha;
- b) o'z o'rnini belgilash (topish) davri; 15 yoshdan 17 yoshgacha.

L.I.Bojovich har bir bosqichni psixologik tavsiyalashda unda namoyon bo'ladigan o'zgarishlarni, bu o'zgarishlarning sabablari, omillari, manbalari, turtkilari, mexanizmlarini ham bayon qiladi.

D.B. Elkoninning tasnifi etakchi faoliyat (A.N.Leontev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Etakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli

nazariyaning negizini tashkil qiladi.

D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

- 1) go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha; asosiy faoliyat – bevosita emotsional muloqat;
- 2) ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha; asosiy faoliyat – predmet bilan nozik harakatlar qilish;
- 3) maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha; asosiy faoliyat – rolli o'yinlar;
- 4) kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 10 yoshgacha; asosiy faoliyat – o'qish.
- 5) Kichik o'smirlik davri – 10 yoshdan 15 yoshgacha; asosiy faoliyat – shaxsning intim muloqoti;
- 6) Katta o'smirlik yoshi yoki ilk o'spirinlik davri – 17 yoshdan 17 yoshgacha; asosiy faoliyat – o'qish, kasb tanlash.

D.B. Elkonin tasnifini, ko'pchilik psixologlar ma'qullashishiga qaramay, unda ayrim munozarali jihatlar ham bor. Umuman esa D.B. Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi; 2) bolalar rolli o'yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin xis-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar; 3) rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbiq qiladi; 4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi.

6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, Yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarishlar yuz beradi. Bolalarning maktabga o'tishlari, ularning yasidan bog'chaga o'tishlariga qaragnada murakkab bosqichdir. SHuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi. chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar bog'chada «katta» deb hisoblanar edilar. Maktabga o'tgach, ular yana «eng kichkinalar» qatoriga tushib qoladilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga munosabati boshqa guruh motivlariga ham tayanadi, o'qishning borishi bilan uning qabul qilinishi bilan bog'liq Bu bilishga qiziqish shu yo'ldagi qiyinchiliklarni engib o'tish bu ishlarda faollikni ko'rsatish, bu guruh motivlarining o'sishi bilishga ehtiyojlilik darajasiga bog'liq. Bu his bilan bola maktabga keladi. Boshqa tomondan darsning

tashkil qilinishi va borishi muhim rol o'ynaydi. Motivatsiyada asosiy rol o'qishning tashkillanishi borishi bilimga qiziqishni kuchaytiradi.

XIX asrning 60 yillarida o'smir davri pedagogik psixologiyasi to'laravishda printsiplari ishlab chiqilishi ilmiy yo'lga qo'yildi. Komil insonni shakllantirish uchun manna shu davrda o'smir yoshida bolani kompleks o'rganishni ilmiylashtirildi.

Bolani to'laqonli rivojlantirishga katta o'rg'u berildi. Aqlan bu ishni bajarishda pedagogika yoki psixologiya emas, boshqa fanlarning roli ham qamrab olindi.

O'smirlik yoshi rivojlanishida 3 ta fanga tayanadi:

1. Psixologiya
2. Fiziologiya
3. Logika

Bular quyidagi fanlar o'rtasida bog'lanib o'rganiladi ya'ni meditsina va didaktikaning roli beqiyosdir.

Pedagogika va psixologiyaning bog'lanishi bolalarning o'smir yoshlarda har qanday fikrlarning paydo bo'lishida asos bo'lgan. Bu narsa pedagogika va psixologiya degan termin paydo bo'libdi. Fan sifatida ko'pgina muammolar va ishlanmalarni olib kelinishiga sabab bo'ladi.

Pedagogika bilan fiziologiyaning bog'liqligi ham psixologik jihatdan insonni yangicha tarbiya olishiga chorlaydi. Aqliy tarbiyaga katta yordam boradi. SHu bilan birgalikda shaxsning gigienik normalari ishlab chiqildi. Psixologik va fiziologik jihatdan rivojlanishiga yordam berdi. Bu esa maktab gigienasi alohida fan tarmog'i sifatida shakllanishiga olib keldi.

Pedagogika va logika o'rtasidagi aloqa psixologiya mantiqiy rivojlanishi natijasida yangicha yondoshishi ya'ni, masalalarni hal qilishning didaktik yo'llari bilan o'smirlik yoshida mantiqiy yo'llarini o'rganish paydo bo'ldi. SHunday qilib manashularning ildizi bolani har tomonlama o'rganish va ularning rivojlanishda qonuniy to'g'ri ekanligi va optimal yo'llar yaratildi.

Bolani o'rganishda juda ham katta qiziqishlarga sabab bo'lgan narsa shunda ko'rindiki, umumiy psixologiyaning rivojlanishiga katta yo'l ochildi.

Ilmiy ildizlar.

Bolalarning rivojlanishini nazariy bilim ilmiy jihatdan ochilishi juda ham ko'p metodik izlanishlar, kuzatishlar insonni psixologik bilim va psixologiyada ko'pgina eksperimentlar qilishga olib keldi. Shuning uchun ham birinchi eksperimentni rus psixologi Sikorskiy 1879 yilda ochib berdi.

Mana shu yillardagi insonparvar demokratik an'analar juda ham ko'p olimlarni shu ish bilan shug'ullanishga uydaydi, lekin ular faqatgina rivojlanishda qolmasdan komil insonning rivojlanishiga shakllanishiga katta xissa qo'shdilar.

XIX asrning 60-yillariga kelganda burilish davri bo'ldi, qaysiki YAngi etap psixologiya va pedagogika fanida yangi yo'nalishlarni shuningdek bolani o'rganish va tarbiyalashda yangi yo'nalishlarni ochib berdi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollar:

1. Psixologiyada yoshni davrlashtirishning nazariy va amaliy ahamiyati nimada?
2. Maktabgacha yosh davrida individual xususiyatlar qanday namoyon bo'ladi?
3. Kichik maktab yoshida psixik rivojlanish qanday omillar ta'sirida ro'y beradi?
4. O'smirlar kattalardan o'zining qaysi individual xususiyatlariga ko'ra keskin farq qilishadi?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anastazi A. Differentsialnaya psixologiya M.: "MGU" 1998
2. Differentsialnaya psixologiya M.: "MGU" 2007
3. Obshaya psixodiagnostika M.1987
4. Merlin V.S. Ocherki teorii temperamenta M.: "Izd-vo" 1990
5. G'oziyev E. Aqliy kamoloingizni aniqlay olasizmi T. 1996
6. Nemov R.S. Psixologiya M.1999
7. Nemov R.S. Psixodiagnostika c elementami matematicheskoy statistiki M.1997
8. Psixologiya individual'no'x razlichiy M. 1993
9. To'laganova G.Q Differentsial psixofiziologiya T.: "Universitet" 2002
10. Rusalova V.M. Biologicheskie osnov individualno-psixologicheskix razlichiy M.: "Nauka" 1991